

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA FAKULTETI
BOSHLANG‘ICH TA‘LIM METODIKASI KAFEDRASI
5141600 – “BOSHLANG‘ICH TA‘LIM, SPORT -
TARBIYAVIY ISH” TA‘LIM YO‘NALISHI
4-BOSQICH 1-GURUH TALABASI

QO‘YCHIYEVA ZARNIGORNING

Bitiruv malakaviy ishi

MAVZU: *2 – sinfda “ Maktabim – Qutlug’ Makonim,
Kitobim – Oftobim”*
bo’limini o’rgatish usullari

Imiy rahbar:

S. Jo‘raxonova

Andijon – 2014

MUNDARIJA.

Kirish.	3
I bob. O`qish darslarining vazifalari	6
1.1. O`qish darslarida nutq o`stirish	13
1.2. Yaxshi o`qish sifatlari va ularning shakllantirish yo`llari	19
II bob. 2 – sinf O`qish” kitobidagi “Maktabim – qutlug’ makonim, kitobim – oftobim” bo`limdagi she’riy asarlarni o`rgatish	
2.1. Boshlang`ich sinfda she’riy asarlar ustida ishlash	29
2.2. « Maktab » she’rini ifodali o`qish va ta’limiy o`yin usulida o`rgatish	35
2.3. « Ona tilim » she’rini suhbat, “aqliy hujum” metodi asosida o`rgatish	42
III bob. 2 – sinf O`qish” kitobidagi “Maktabim – qutlug’ makonim, kitobim – oftobim” bo`limidagi hikoyalar ustida ishlash	
3.1. Hikoya ustida ishlash metodikasi	47
3.2. « Ilm » hikoyasini izohli o`qish va suhbat metodi asosida o`rgatish.	51
3.3.«Eng yaqin do`stimiz» hikoyasini o`rgatishda noan'anaviy usullardan keng foydalanish.	55
3.4. “Maktabim – qutlug’makonim, kitobim – oftobim” bo`limidagi topishmoqlarni o`rgatish usullari	62
3.5. Bo`limdagi maqollar ustida ishlash usullari	65
Xulosa	71
Adabiyotlar ro`yxati	73

Kirish

O'zbekistonda mustaqillikni qo'lga kiritgan dastlabki davrlardan oq intellektual salohiyati yuqori kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgan davlat siyosati olib borilmoqda. Mustaqillik yillarida yangi avlod erkin, tanqidiy, ijodiy va mustaqil tafakkurga ega, mustamlakachilik davrida o'sgan avloddan farqli, ijtimoiy qo'rquvdan va milliy nomukammallik tuyg'usidan xoli, siyosiy va ijtimoiy faol, izlanuvchan va omilkor, milliy va jahon madaniyatidan xabardor, yuksak ma'naviyatli shaxs bo'lib shakllanishi lozim, degan vazifa ko'ndalang qo'yildi. Bu yo'lda amalga oshiriladigan asosiy vazifalardan biri uzoqni ko'zlab qabul qilingan - "Ta'lim to'g'risida" gi Qonundir. Ta'limning poydevori hisoblangan boshlang'ich ta'lim umumiy ta'limning poydevori, tayanch nuqtasi hisoblanadi. Boshlang'ich ta'limda olgan bilimlar ta'limning keyingi bosqichlari uchun asos bo'ladi.

"Ta'lim to'g'risida" gi Qonunda , " Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi " da takidlanganidek, o'quvchini mustaqil fikrlashga, faollikka o'rgatuvchi ta'lim usullarini qo'llab, ularni nutqini o'stirish hozirgi zamon boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalaridan biridir.

Bugungi kunda til ta'limi maqsadini belgilar ekanmiz, bevosita yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek: "O'z fikrini mustaqil, ona tilida ravon, go'zal va lo'nda ifoda eta olmaydigan mutaxassisni bugun tushunish ham, oqlash ham qiyin"¹. Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ni qabul qilishda Oliy Majlisi IX sessiyasida 1997 yil 29 avgustda so'zlagan nutqlarida esa: "Mening fikrimcha, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirishdagi asosiy muammo ham mana shu yerda. O'qituvchi bolalarimizga zamonaviy bilim bersin, deb talab qilamiz. Ammo, zamonaviy bilim berish uchun, avvalo murabbiyning o'zi ana shunday bilimga ega bo'lishi kerak" - aytilgan fikrlarini ko'ramiz. Demak, jamiyat uchun zaruriy hislatlarga ega bo'lgan shaxslarni yetishtirib berishda yetakchilik qiladigan o'qituvchining o'zi ham zamonaviy bilimlarga ega bo'lishi, muhim hislatlarni mujassamlashtirgan kishi bo'lmog'i lozim. Ana shundagina o'zi

¹ Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent 1998.B.7.

yashayotgan jamiyatning ajralmas qismi bo'lgan o'qituvchi – murabbiy yoshlarga zamonaviy bilimlar bera oladi, ularni yangi davr kishilari etib tarbiyalay oladi.

Yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalash va kamol toptirish uchun ona tili va uni o'qitishning ahamiyati cheksizdir. Ona tili va o'qish boshlang'ich sinflarda asosiy o'quv predmetlaridan biridir. Kichik yoshdagi o'quvchilar tildan muhim tushunchalar tizimini o'zlashtiradilar, o'qish, yozish, nutqqa oid bilim, ko'nikma va malakalarni egallaydilar. Ona tili va o'qish darslarining asosiy maqsadi o'quvchilarda o'z ona tilida fikrni to'g'ri, aniq, ravon va go'zal ifodalay olish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish. Boshlang'ich sinf o'qish darslari oldiga yetarli talablar qo'yilgan bo'lib, ular: og'zaki nutq uychasidan mustahkam bilim hosil qilish, ishlab chiqarishning hayotining hamma sohalarida faol ijodiy faoliyat ko'rsata oladigon savodli va madaniyatli kishilarni tarbiyalashdir.

O'qish darslarida o'qish tezligini oshirish, ifodali o'qish malakalarini hosil qilish, badiiy matn ustida ishlash, she'r va matnlarni yod olish, tushunchalarini gapirib berish ko'zda tutiladi. “O'qish kitobi”da berilgan har bir matn o'quvchilarning fikrlash doiralarini o'stirish bilan birga ularga tevarak atrofga munosabat, odob ahloq malakalarini o'zlarida mujassamlashtirish, asardagi ijobiy qahramonlarga taqlid qilish, ulardagi eng yaxshi hislatlarni egallash, bilimli, mehnatsevar, jasur, kamtar, vijdonli, bo'lish kabilarni o'zlashtirib borishga qaratilgan.

Mavzuning dolzarbligi. “Ma'naviyat – insonning ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir”, deb yozgan edi Prezidentimiz o'zining “Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch” asarida. Ma'naviyatning qaror topishida esa kitob bilab oshno tutinish, mutolaa madaniyatiga ega bo'lmoqning o'рни alohidadir. Bugungi ishimizni dolzarbligi ham mana shu narsada. Negaki, yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalash va kamol toptirish uchun bolalarning kitobxonlik madaniyatining yuksalishi, kitobni to'liq badiiy idrok etish qobiliyatining

shakllanishi va rivoji beqiyos ahamiyatga ega. Bunda o'qituvchi va o'quvchi hamkorligi hal qiluvchi omildir.

Maqsad va vazifalari. Mazkur bitiruv malakaviy ishi O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida" gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" asosida ta'lim tizimidagi ustuvor muammolardan biri - o'sib kelayotgan avlodning ma'naviy kamolotini ta'minlashda so'z ma'nosini anglashga o'rgatish hamda mustaqil fikrlashning o'rnini va ahamiyatini belgilash, uning nazariy, ilmiy-metodik asoslarini yaratishga qaratilgan.

Bitiruv malakaviy ishning asosiy maqsadi umum ta'lim maktablarining 2-sinflarida "O'qish kitobi" dagi "Maktabim - qutlug' makonim, kitobim – oftobim" bo'limini o'rgatish usullarini tavsiya qilishdir. Bu maqsadni amalga oshirishda o'qish darslarida nutq o'stirish, yaxshi o'qish sifatlari va ularni shakllantirish yo'llari, bo'limdagi she'riy asarlarni o'rgatish, bo'limdagi hikoyalarni, maqol va topishmoqlarni o'rgatish usullari berildi.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati. Mazkur bitiruv malakaviy ishi 2-sinf o'qish kitobidagi "Maktabim - qutlug' makonim, kitobim - oftobim" bo'limi orqali o'quvchilarni tafakkuri va nutqini o'stirish har tomonlama barkamol shaxslarni tarbiyalash va kamolga yetkazishning ilmiy-pedagogik, falsafiy, lisoniy, nutqiy, psixologik tamoyillarini belgilash.

Ishning metodikasiga esa ona tili o'qitish metodikasining so'z ustida ishlash, bog'lanishli nutq ustida ishlash metodlari, tadqiqotning metodlariga tahlil qilish, sinov ishlari, test savollari, nazariy taqqoslash, solishtirish, umumlashtirish metodlari kiradi. Umuman olganda, bitiruv malakaviy ishi, boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasining **"Badiiy asar ustida ishlash", "Turli janrlar ustida ishlash metodikasi"**ni har tomonlama qamrab oladi.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi. Mazkur bitiruv malakaviy ishi kirish, 3 ta bob, 10 ta paragraflar jamlangan 74 sahifadan iborat

I bob. O`qish darslarining vazifalari

O`qish darsining nihoyatda katta ta'limiy va tarbiyaviy roli o`quv predmeti sifatida o`quvchilar nutqining takomilida, bolalarning kitobxonlik madaniyatining yuksalishida, kitobni to`liq badiiy idrok etish qobiliyatining shakllanishi va rivojida beqiyos ahamiyatga molik. Bunda o`qituvchi va o`quvchi hamkorligi hal qiluvchi omildir. Ana shu omil ishga to`liq tushsagina o`quvchi shaxsdagi g`oyaviy, axloqiy-ma'naviy, estetik rivojlanish sodir bo`ladi. Undagi tasavvur imkonlari kengayib, ijodiy hamkorlik qobiliyati kamol topadi, ayni paytda hikoya qilish, ifodali o`qish, fikrni og`zaki va yozma bayon eta olish ko`nikma va malakalari, iste'dod va qobiliyatlari shakllanadi va rivojlanadi. Demak, ona tili va o`qish fani oldidagi vazifalar nihoyatda ko`p va xilma-xildir.

Ma'lumki, o`quvchilarni o`qishga o`rgatish savod o`rgatish jarayonining tayyorgarlik davriga to`g`ri kelib, bu davr bolalarni o`qishga o`rgatish uchun zamin hozirlaydi va bolalarda o`zgalar nutqini eshitish, diqqatni to'plash, til birliklarini (tovush, bo'g'in, so'z, gap) farqlash, ajratish, ularning vazifalarini anglash kabi xususiyatlar shakllantiriladi. Bular o`quvchilarning o`qishni muvafaqiyatli egallashlariga yordam beradi.

Savod o`rgatish jarayonidagi o`qish darslarining asosiy vazifasi o`quvchilarga tovush va harfni tanishtirish, ularning to'g'ri talaffuzini o`rgatish orqali bolalarda to'g'ri, ongli, ifodali o`qish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Shuningdek, o`quvchilar lug'atini boyitish, bog'lanishli nutqini o'stirish, bilimni boyitish, tafakkurini shakllantirish, eshitish, qabul qilish sezgisini o'stirishda ham bu davr mas'uliyatliligi bilan alohida o'rin tutadi².

O`qishga o`rgatish uchun, avvalo, o`quvchi tovush va harf bilan yaxshi tanishtirilishi lozim. Tovush va harf bilan tanishtirishda bo'g'indan tovushni ajratish tamoyiliga rioya qilinadi.

² K.Qosimova, S.Matchonov, X. Gulomova, Sh.Yo'ldosheva, Sh.Sariyev. Ona tili o'qitish metodikasi. Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabalari uchun darslik. T.: «NOSHIR» nashri 2009.B.40.

Boshlang'ich sinflarning o'qish darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Negaki uning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta'limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshqa predmetlar ta'limini o'qish ta'limisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

O'quvchi matnni to'g'ri, tez, tushunib o'qish, mazmunini o'zlashtirish bilan ilk bor o'qish darslarida yuzlashadi. O'qish darslari orqali o'quvchilarning Davlat ta'lim standarti (DTS) talablari bo'yicha o'zlashtirishlari ko'zda tutilgan o'quv-biluv ko'nikma-malakalari hamda bilimlarni egallashlariga yo'l ochiladi. Aynan o'qish ta'limida insonning, avvalo, o'zligini, qolaversa olamni anglashga bo'lgan intilishlariga turtki beriladi.

Shu maqsadda „O'qish kitobi“ darsliklariga ona tabiat, atrofimizni o'rab turgan olam, Vatanimiz tarixi va bugungi qiyofasi, kattalar va bolalar hayoti, mehnatsevarlik, istiqlol va milliy-ma'naviy qadriyatlar, xalqlar do'stligi va tinchlik kabi turli mavzular bo'yicha atroflicha tushunchalar berishga mo'ljallangan badiiy, axloqiy-ta'limiy, ilmiy-ommabop asarlar kiritiladi.

O'qish darslari savod o'rgatish davrida o'quvchilarni bo'g'in, so'z va gaplar bilan tanishtirish va ularni o'qish, rasmlar asosida hikoya qilish tarzida uyushtirilsa, o'qish texnikasi egallangandan so'ng o'qish muayyan mavzular bo'yicha tanlangan badiiy, ilmiy-ommabop matnlar yuzasidan olib boriladi.

Boshlang'ich sinf „O'qish kitobi“ darsliklariga kiritilgan muayyan mavzular o'quvchilarni badiiy adabiyotning sehrli olamiga olib kirishi, dunyoqarashlarini milliy istiqlol mafkurasi asosida to'g'ri shakllantirishga qaratilishi bilan belgilanadi. Shunga ko'ra, o'qish darslarining yetakchi xususiyati o'quvchilarning savodxonligini ta'minlash bilan birga, o'quvchilarni milliy mafkura asosida yuksak axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratiladi.

Boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida o'rganiladigan asarlarning mavzu doirasi ancha keng bo'lib, ular ona tabiat, yil fasllari, xalq og'zaki ijodi, mehnatga muhabbat, asosiy bayram sanalari, milliy istiqlol va ma'naviyat kabi umumiy mavzular doirasida yaratilgan.

O'qish darslari uchun tanlangan mavzular o'quvchilarga kundalik hayot, mustaqillikni mustahkamlash va insoniy munosabatlar bo'yicha ham bilim va tarbiya berishni ko'zda tutadi. Bular ichida istiqlool, vatan, ma'naviyat va tabiat haqidagi mavzular alohida ajralib turadi. Ulardan ko'zlangan maqsad o'zlikni anglash, istiqlool, vatan va tabiat bilan bog'liq tuyg'ularni uyg'otishdir.

Vatanparvarlik, atrofimizdagi olam, mehnatsevarlik kabi mavzular o'qish darsliklaridagi keng qamrovli mavzulardan bo'lib, 2-sinf „O'qish kitobi"dagi „Ona yuriim-oltin beshigim" bo'limiga kiritilgan „O'zbekistonim" (H. Imonberdiyev), „Istiqlol" (J.Jabborov), „O'lka" (E.Vohidov), „Yur tog'larga" (U.Nosir), 3-sinfda „Ona bitta, Vatan yagona" bo'limidagi „Vatan haqida she'r" (A.Avloniy), „O'zbekim" (E.Vohidov), „ Vatan mo'tabardir" (X. Davron), „Bilib qo'yki, seni Vatan kutadi" (T.Malik), 4-sinfda „O'zbekiston - Vatanim manim" bo'limidagi „Serquyosh o'G'ka" (Z. Diyor), Iqbol buyuksan" (A. Oripov), „Toshkentnoma" (M.Shayxzoda), „Xarita" (N.Norqobil) kabi asarlar misolida atroflicha tahlilga tortiladi³.

Ijtimoiy-tarixiy mazmundagi mavzular Vatanimiz o'tmishi, xalqimiz hayoti, mardonavor kurashi, ulug' siymalar tomonidan amalga oshirilgan ishlar, tarixiy sanalar to'g'risida muayyan tasavvur beradi. Beruniy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur va boshqa ajdodlarimiz haqidagi matnlar shular jumlasidandir. Bu xildagi asarlar o'quvchilarni faqat o'tmishimiz bilan tanishtirib qolmasdan, Vatan oldidagi farzandlik burchi va mas'uliyatini teran anglashga ham yordam beradi. Ularda Vatanga muhabbat tuyg'usi shu tariqa shakllanadi. Vatanimiz o'tmishi haqida hikoya qilingan asarlar bilan tanishish va ularni tahlil qilish jarayonida o'quvchilar o'tmish bilan bugungi kunni taqqoslash imkoniga ega bo'ladilar, jamiyat taraqqiyoti xususida qisqacha bo'lsa-da, tushuncha hosil qiladilar. Bu borada ayniqsa milliy istiqlool bilan bog'liq H. Imonberdiyevning „O'zbekistonim ", J. Jabborovning „Istiqlol"(2-sinf), A. Rustamovning „Bayroq nima?", A. Obidjonning „O'ktam avlod" (3-sinf). S. Barnoyevning „Mangidikka tatigulik kip",

³ T.G'afforova, Sh.Nurullayeva, Z.Mirzahakimova. O'qish kitobi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik. T.: «Sharq» nashryot-matbaa aksionerlik kompaniyasi Bosh tahririyati nashriyoti. 2012. B.31.

E. Malikovning „Assalom, Neksiya!“ (4-sinf) mavzusidagi asarlari yaqindan yordam beradi⁴.

Tabiatga oid mavzular yordamida o'quvchilar tabiatdagi o'zgarishlar, yil fasllarining almashinuvi, hayvonot olamiga doir bilimlarni egallaydilar. Bunday mavzudagi asarlar o'quvchilarni ku-zatuvchanlikka, tabiatni sevishga, unga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lishga o'rgatadi.

Tabiat tasviriga oid matnlar ustida ishlashda tabiat bag'riga sayohat uyushtirilib, bolalar kuzatuvchanlikka o'rgatilsa, vatanparvarlikka oid asarlar tahlili vatanning dongdor kishilari bilan uchrashuvlar yoki mavzuga daxldor kinofilmlar namoyishi vositasida amalga oshirilsa, dars samaradorligi yanada ortadi.

Umuman, „O'qish kitobi“ darsliklaridagi barcha mavzular o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish bilan birga, ularning lug'atini boyitishga, og'zaki va yozma nutqini to'g'ri shakllantirish va nutq madaniyatini o'stirishga ham qaratiladi.

Amaldagi „O'qish kitobi“ darsliklarida materiallarning sinfdan sinfga o'tgan sari mavzu jihatidan ham, mazmun jihatidan ham kengaya borishi hisobga olingan. Masalan, 1-sinfda o'rgatiladigan „Ajdodlarimiz ~ faxrimiz“, Ilmn - aql chirog'i“, „Zumrad bahor“, „Kumush qish“ kabi mavzular 2-4-sinflarda ham davom ettirilgan. Bu esa o'quvchilarning oldingi bilimlarini to'ldiradi va boyitadi.

Uzluksiz ta'limning boshqa bosqichlaridan farqli o'laroq, boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida o'quvchilarning o'qish malakalarini shakllantirish, asar matni ustida ishlash ta'limning didaktik maqsadi hisoblanadi. U turli mavzudagi matnlar ustida ishlash orqali ma'naviy-ahloqiy, adabiy-estetik tarbiya bilan chambarchas bog'lab olib boriladi.

Darsliklardagi har bir mavzu uchun tanlangan matnlarning janriy rang-barangligiga, poetik mukammalligiga, o'quvchilarning bilim darajasi va yosh xususiyatlariga mos kelishiga alohida e'tibor qaratiladi.

⁴ .K.Qosimova, S.Matchonov, X. G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva, Sh.Sariyev.

Ona tili o'qitish metodikasi. Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabalari uchun darslik. T.: «NOSHIR» nashri 2009.B.56

O'quvchilar darsliklar yordamida o'zlashtiriladigan bilim, ko'nikma va malakalarining kelajak hayotda zarur bo'lishini tushunib yetishishlariga erishish o'qituvchilar oldidagi muhim vazifalardandir.

Boshlang'ich ta'lim bo'yicha DTS va „Ona tili“ o'quv dasturida o'qish ta'limi oldiga qo'yilgan talablarni amalga oshirish sinfda o'qishni to'g'ri tashkil qilish, o'qitish bosqichlari, tamoyillari va metodlari, birinchi navbatda, ilg'or pedagogik texnologiyalardan o'rinli foydalanishga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Umuman olganda, o'qish darslari oldiga qo'yiladigan didaktik vazifalar quyidagilardan iborat:

1. O'quvchilarda yaxshi o'qish sifatlari: to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qishlarini shakllantirish.

2. O'quvchilarni kitobdan foydalanishga, undan kerakli bilimlarni olishga o'rgatish, kitobga muhabbat uyg'otish; ularni oddiy kitobxondan chuqur mulohaza yurituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarish.

3. O'quvchilarning atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish va boyitish hamda ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish.

4. O'quvchilarni axloqiy, estetik jihatdan yetuk va mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash.

5. O'quvchilarning bog'lanishli nutqini va adabiy-estetik tafakkurini o'stirish.

6. O'quvchilarning xayolot olamini boyitish.

7. Elementar adabiy tasavvurlarini shakllantirish⁵.

Shuni unutmaslik kerakki, har bir ta'limiy vazifani bajarishning aniq va ilmiy metodik usullari mayjud bo'lib, ular zamonaviy o'qitish usullari bilan boyitib borilmoqda. Bu vazifalar boshqalari bilan o'zaro bog'liq holda va sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari jarayonida hal qilinadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun yaratilayotgan o'quv-metodik adabiyotni o'rganish natijasida, shuni alohida aytish mumkinki, bugungi kunda

⁵ O'sha manba.B. 57

umumiy o`rta ta'lim tizimining boshlang`ich sinflari uchun o`quv-metodik adabiyotlar majmui yaratilgan. Jumladan, 1-4-sinflar o`qish va ona tili darsligi va shu asosda yaratilgan metodik qo`llanmalar o`quvchilarning og`zaki va yozma nutqlarini o`stirishga qaratilganligi bilan xarakterlanadi.

O`qish darslarida estetik asoslar ustuvor bo`lgandagina o`rganiladigan badiiy asarlarning chinakam badiiy jozibasi oydinlashadi, so`zning ilohiy shehrini yashirin jozibasi oydinlashadi”, - kabi qarashlaridan hukm-xulosalaridan o`qish jarayonida ham foydalanish mumkin.

1-2- sinf o`quvchilari kattalarning yordamisiz, o`zlaricha o`qilgan asarning g`oyaviy mazmunini idrok etishga tayyor bo`lmaydilar, chunki ular asarlardagi voqealarni notanish bo`lgani uchun, ko`z oldilariga keltira olmaydilar. 6-8 yoshli bolalar ko`pincha asardagi voqealarni hissiyot orqali “ qo`rqinchli “ , kulguli deb baholaydilar. 1-2- sinf o`quvchilari asardagi voqealarni oddiyroq tasavvur etadilar. Aslida esa voqealar muallifi talqinida ifoda etiladi . Yosh o`quvchilar esa bu haqda tushunchaga ega bo`lmaydilar .

Vaqt o`tishi bilan 2-4-sinf o`quvchilarida kitobxonlik faoliyati shakllana boshlaydi. 2-4-sinf o`quvchilari asarning g`oyasini tushunib yetish imkoniyatiga egadirlar . Ya`ni, asarning tuzilishi sodda va oldin o`qilgan asarlarga o`xshash bo`lishi lozim. Bolalarda asardagi voqealarni so`z bilan ifodalash, ularni ko`rayotgandek tasavvur qilish kabi malakalar shakllana boshlaydi.

2-sinf o`qish kitobi mualliflari T.G`afforova, Sh.Nurullayeva, Z.Mirzahakimova tomonidan «Sharq» nashriyot-matbaa aktsionerlik kompaniyasi Bosh tahririyati nashriyoti. Toshkent 2012 yil uyida nashrdan chiqqan bo`lib, u 11 bo`limdan iborat.

II bo`lim “Maktabim - qutlug` makonim, kitobim oftobim” deb nomlangan bo`lib, bo`lim Umida Abduazimovanning “Maktab” she`ri bilan boshlanadi. Abdulla Avloniyning “Ilm” nomli hikoyasi, Mirtemirning “Uyg`on” she`ri, Ne`mat Toshpo`latovning “”Mukofot” nomli ertak-hikoyasi, bolalarning sevimli yozuvchisi Tursunboy Adashboyevnig “Ona tilim” nomli she`ri va shu kabi

mavzular yosh avlodni murg'ak qalblarida maktabga, o'qishga mehrning uchqunlarini uyg'ota olish kabi g'oyalar bilan alohida o'rin egallaydi.

Hatto bo'limda topishmoq haqida qisqacha ma'lumot berilganki, bu bilan bolalar boshlang'ich sinf davridayoq topishmoq haqida ma'lumotga ega bo'ladilar.

Bo'limga kirgan har bir mavzu to'laqonli bolalarcha yaratilgan, uning zaminida o'quvchilarga maktab eng muqaddas dargoh ekanligi, bilim manbai bo'lgan kitobni asrab-avaylash kabi hisslatlarini shaklantirishga xizmat qiladi.

Bo'limdagi har bir mavzu alohida ahamiyat kasb etadi va bo'lim so'ngida savol, topshiriqlar berilganligi bu bo'limning yutug'idir.

1.1. O'qish darslarida nutq o'qirish

O'qish darslarini Davlat talablari asosida hayotiy tajribalarga, kuzatishlarga suyanib, hayotga bog'lab o'tishi uning ta'sirchanligi ongli idrok etishlarini ta'minlaydi. O'qish va nutq o'qirishning ta'limiy - tarbiyaviy maqsadlari, sinflar bo'yicha o'qish mazmunini, o'qish ko'nikmalarining og'zaki va yozma nutqlarini rivojlantirish usullarini, o'qish mashg'ulotlarining yozma nutq bilan bog'lanish kabi masalalar aniq kiritilgan.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning og'zaki nutqini o'qirish ishi rejali tashkil etilsa, bu sohadagi tadbirlar muntazam ravishda amalga oshirib borilsagina u o'quvchining butun vujudiga, uning hissiyotiga, tasavvuriga, iroda va xarakteriga, nihoyat fikrlash faoliyati va qobiliyatiga ta'sir etib, nutqning ravon, ifodali bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu yo'l bilan nutq malakalarini rivojlantirish orqali, ularda to'g'ri so'zlash va aniq, mantiqiy fikr ifodalash salohiyati shakllanib boradi. Ularning ijodiy qobiliyati va istedodlarini rivojlantirish ro'yobga chiqaradi⁶¹².

Nutq o'qirishda matnlar ustida tizimli tarzda ishlash o'quvchilarni matn yaratishga o'rgatish, ularning so'z boyligini aniqlash va rivojlantirib borish, so'z ma'nolarini to'g'ri anglash, o'z nutqlarida to'g'ri ifodalash imkoniyatlarini tug'diradi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar nutqini samarali tashkil etish maqsadida ob'ektiv tarzda tashkil etilgan sinov natijalariga asoslangan nutq o'qirish tizimini yaratish, boshlang'ich ta'lim metodikasi fani oldida turgan dolzarb muammolardan biridir.

Shuni e'tirof etish kerakki, "Boshlang'ich ta'lim davlat standartining" yaratilishi, boshlang'ich ta'limni rivojlantirishga, o'quvchilarning savodxonlik masalasini yuksaltirishga, ularda manaviy barkamollikni ta'minlashga imkon beradi.

⁶ O'sha manba.B.132

Boshlang'ich sinflarda o'qitilayotgan ona tili o'qish darslari adabiyot fanining tarkibiy qismi hisoblanadi. Dasturlarning o'qish va nutq o'stirish bo'limida o'tkaziladigan mashg'ulotlar mazmuniga; o'quvchilarni to'g'ri, ravon, ma'lum darajadagi tezlik bilan ifodali o'qishga o'rgatish; bolaning ona - Vatan, uning tabiati kishilar mehnatidagi qahramonlik, jasurlik, milliy istiqlol g'oyalarini ular ongiga singdirish kabi bilimlarni boyitish orqali o'quvchilarning bilim, ko'nikma malakalari kengaytiriladi, shakllanadi va mustahkamlanadi.

O'qish darslarini Davlat talablari asosida hayotiy tajribalarga, kuzatishlarga suyanib, hayotga bog'lab o'tishi uning ta'sirchanligi ongli idrok etishlarini ta'minlaydi. O'qish va nutq o'stirishning ta'limiy - tarbiyaviy maqsadlari, sinflar bo'yicha o'qish mazmunini o'qish ko'nikmalarining og'zaki va yozma nutqlarini rivojlantirish usullarini, o'qish mashg'ulotlarining yozma nutq bilan bog'lanish kabi masalalar aniq kiritilgan.

O'qish darslar davomida o'quvchilar so'zdagi harflarni bir-biriga bog'lab yozish, so'z va gaplarni kichik hamda bosh harflarni alifbe kitobida berilgan tartibda yozishga o'rgatiladi.

2-sinfda o'quvchilarga so'zlarni butunligicha sidirg'asiga o'qish malakasi shakllanadi. O'qishning to'g'ri ifodali bo'lishiga erishiladi. O'qish sur'ati tezlashadi. Bu sinfda o'quvchilar matnning ayrim qismlarini, qisqa hikoyalarni ichida mustaqil o'qishga o'tadilar. Matn ustida ishlash murakkablashib boradi. Bolalar o'qituvchi rahbarligida asarning asosiy mazmunini aniqlaydilar, qahramonlarning hatti xarakatini ifodalovchi so'z va iboralarni topishga, voqea-hodisalarni so'z bilan tasvirlashga o'rganadilar. Ularda so'z boyliligiga talab ortadi.

Ma'lumki, nutq tafakkur bilan bog'liq, shuning uchun u tafakkur bilan uzviy bog'liq holda o'stiriladi. Darsda o'qilgan asarni o'quvchilar ongli tushunishi, asosiy mazmunini, g'oyasini anglab yetishi uchun tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish kabi mantiqiy usullar qo'llanadi.

O'qilgan asarni analiz qilishda har xil ish usullaridan foydalaniladi. Bolalar hikoyadagi asosiy qatnashuvchi shaxslarni aytadilar, o'qituvchi

rahbarligida asar rejasini tuzadilar. Qatnashuvchi shaxslarni o'quvchilar har xil tartibda aytishlari mumkin, ammo o'qituvchi ularni asarda qatnashish tartibida aytishni so'raydi. Natijada o'qituvchi rahbarligida hikoyaning chizmasi tuziladi. O'qituvchi bergan savollar yordamida asarlarning mazmuni aniqlanadi.

Shunday qilib, asar mazmuni bilan birinchi tanishish o'quvchilardan ongli ishlashni, ya'ni voqealarni, qatnashuvchilar tarkibini tahlil qilishni talab etadi. O'qish bilan bog'liq holda bajariladigan bunday mantiqiy ishlar asta-sekin murakkablasha boradi.

Boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida o'quvchilar nutqining o'sish darajasi to'g'ri uyushtirilgan qayta hikoyalashdir. Maktab tajribasida to'liq, qisqartirib, tanlab va ijodiy qayta hikoya qilish turlari mavjud. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun matnni to'liq yoki matnga yaqin qayta hikoyalash ancha oson, boshqa turlari esa nisbatan qiyinroqdir. Qayta hikoyalashda o'qilgan hikoya mazmuni yuzasidan o'qituvchining savoli hikoyaning detallari haqida, ayrim voqealar o'rtasidagi bog'lanishning sabab-natijalari haqida fikrlashga qaratilishi lozim. Asar sujetining rivojlanishida qatnashuvchi shaxslar, ularning xatti-harakati asosiy rol o'ynaydi. O'quvchilar asar mazmunini unda ishtirok etuvchi shaxslar va ularning xatti-harakati, xarakterli xususiyatlarini tahlil qilish yordamida yaxshi anglab yetadilar. O'qituvchining savoli asar qahramonlari nima qilgani, ularning u yoki bu xatti-harakati qayerda va qanday sharoitda yuz bergani haqida so'zlab berishga, voqealarni izchil bayon qilinishga va o'zaro bog'liqligini yoritishga yunaltirilishi lozim.

O'quvchi o'qilgan asar mazmunini o'qituvchi savoli yordamida aytib berishida faqat analizdan emas, sintezdan ham foydalaniladi: ayrim lavhalar o'zaro bog'lanadi (sintezlanadi), bir-biriga taqqoslanadi, ular yuzasidan muhokama yuritiladi va xulosa chiqariladi.

Ko'pincha boshlang'ich sinf o'quvchilari qatnashuvchi shaxslar xatti-harakatini yaxshi tushunmasliklari, ba'zan noto'g'ri yoki yuzaki tushunishlari natijasida asar mazmunini anglab yetmaydilar. Shuning uchun ham o'qituvchi savolni juda o'ylab tuzishi, u bolani fikrlashga, o'ylashga majbur etadigan, qatnashuvchi shaxslarning xatti-harakati, voqealarning bog'lanishi yuzasidan muhokama yuritishga""undaydigan, ularni o'zaro qiyoslashga, ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlashga yordam beradigan bo'lishi lozim. O'quvchi asarda qatnashuvchilarning xatti-harakatini qanchalik aniq ko'z oldiga keltira olsa, u hikoyaning asosiy mazmunini shunchalik chuqur tushunadi, shunchalik mustaqil qayta hikoya qilib beradi.

O'qilgan asar mazmunini izchil ravishda qayta hikoyalash uning rejasini tuzishga yordam beradi. Reja tuzishda o'quvchi hikoyani tarkibiy qismlarga bo'ladi va har qaysi qismdagi asosiy fikrni aniqlaydi. Bularning hammasi analitik ish hisoblanadi. Keyin sintetik ishga o'tiladi, ya'ni bolalar hikoya qismlariga sarlavha topadilar. O'quvchilar o'qituvchi rahbarligida reja tuzish jarayonida o'qilgan hikoyaning har bir qismida bosh va ikkinchi darajali masala nimalardan iboratligi haqida, qanday qilib fikrni qisqa va aniq ifodalash haqida o'ylaydilar. Sarlavha topish ustida ishlash. o'quvchilar topgan sarlavhani jamo-aviy muhokama qilish, reja tuzish Jarayonining o'zi bolaning fikrlash qobiliyatini faollashtirishi, unda o'z mulohazasini isbotlash, asoslash odatlarini tarbiyalashi lozim.

Asarni o'qish va tahlil qilish jarayonida tuzilgan reja xat taxtaga yozilsa, hikoya' mazmunini izchil qayta hikoya qilishga yordam beradi. Reja asosida hikoya qilishning vazifasi mazmunni berilgan izchillikda o'zlashtirishdir. Reja asosida qayta hikoyalash o'qituvchi savoliga javob berishga nisbatan asar mazmunini aytib berishning xiyla mustaqii shaklidir.

O'qilgan asar mazmunini o'zlashtirish ustida ishlashdagi keyingi bosqich qisqartirib hikoyalash hisoblanadi. Qisqartirib hikoyalash uchun 2-3 qismga bo'linadigan, bu bo'limlar yaqqol ajralib turadigan, mazmuni sodda asarlar tanlanadi. Qisqartirib hikoyalashga o'rgatish quyidagieha uyushfiriladi:

o'qituvchi hikoyaning oldindan belgilab qo'ygan qismini o'qiydi va o'quvchilar bilan birgalikda eng muhim, asosiy fikr aniqlanadi. Bunda o'quvchilar ba'zan asardagi so'zlardan foydalanadilar. Bu o'quvchilarga qiyinlik qilsa, bo'limdagi asosiy fikrni o'z so'zlari bilan aytib berish I ari mumkin. Keyin o'quvchilar o'qituvchi bilan bu qismni qisqaitirib hikoyalashda nimalar haqida gapirmaslik kcrakligini, qaysilar ikkinchi darajali yoki kam aharniyatli fikr ekanini aniqlaydilar. Asarning boshqa qismlari yuzasidan ham shunday ish olib boriladi va o'quvchilar asarni qisqaitirib qayta hikoya qiladilar. O'qilgan asarni qisqaitirib hikoya qilishga II sinfdan boshlab o'rgatiladi.

Tanlab hikoyalash ham bolalarning tafakkuri va nutqini o'stirish vositalaridan biridir. Tanlab hikoyalashda o'quvchi: 1) o'qilgan matndan bir qismini, uning ehegarasini ongli ravishda ajratib so'zlab beradi; 2) hikoyadan faqat bir voqeani aytib beradi; 3) hikoya mazmunini faqat bir sujet yo'nalishida so'zlab beradi.

O'quvchilarda tanlab qayta hikoyalash malakasini hosil qilishga boshlang'ich sinf izohli o'qish darslarida keng qo'llaniladigan metodik usullar yordam beradi: 1) hikoya qismiga chizilgan rasm asosida hikoyalash, 2) hikoyadagi bir voqeani tasvirlovchi rasm asosida hikoyalash; 3) tanlab qayta hikoyalashni talab etadigan savollarga javob berish.

O'quvchi tanlab hikoya qilishga tayyorlanganda o'qilgan matnni lahlil qilad: Bunday tahlil bolalar tafikkurini, ular nutqidagi musta-qtllikni o'stiradi va o'qilgan matn mazmunini o'zlashtirishga yordam beradi.

Hikoyani o'qish bilan bog'liq holda o'tkaziladigan ijodiy ishlar ham o'quvchilar nutqini, tafakkurini o'stiradi. Bular: 1) ijodiy qayta hikoyalash; 2) inssenirovka qilish; 3) o'qilgan asarga rasm chizish; 4) hikoyani davom ettirish.

Ijodiy qayta hikoyalashda o'qilgan hikoyaning sharoiti yoki shaklini qisqartirib hikoya qilinadi. Bunda hikoyani yangi epizodlar bilan to'ldirib hikoya qilish ham mumkin.

Inssenirovka yoki sahnalashtirishda o'quvchilar o'qilgan hikoyani sahnabop qilib o'zgartiradilar. Buning uchun ular hikoyaga ssenariy haqida, kiyim-kechaklari, qatnashuvchilarning imo-ishorasi haqida o'ylaydilar, monologik nutqni dialogik nutqqa aylantiradilar (bu tilni o'rgatish nuqtai nazaridan eng muhim ish hisoblanadi).

O'qilgan hikoyaga rasm chizishda o'quvchi rassomlar tomonidan chizilgan rasmlardan o'qilgan asarning mazmuniga mos rasm tanlaydi yoki o'zi rasm chizadi. Agar o'quvchi rasmni yaxshi chiza olmasa, o'zi chizmoqchi bo'lgan rasmni og'zaki tasvirlab beradi, ya'ni so'z bilan chizadi.

O'qilgan hikoyani davom ettirish usuli maktab tajribasida keng qo'llaniladi. Bu usul hikoyaning mazmuni uni davom ettirishga imkon beradigan asarlarda qo'llaniladi.

Umuman olganda, boshlang'ich sinf o'qish darslarida ham o'quvchilar nutqi va tafakkurining rivojlanishiga katta ahamiyat qaratiladi.

“Ta’lim to’g’risida” gi Qonun, ‘Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi’ da ta’lim berishning yangi usullarni izlab topish va uni tadbiq qilish borasida ko’p aytilgan. Shu nuqtai nazardan boshlang’ich sinflarda ham dars o’tish jarayonini takomillashtirish uchun izlanishlar olib borilmoqda.

Umuman, nutq o`stirishda matnlar ustida tizimli tarzda ishlash o`quvchilarni matn yaratishga o`rgatish, ularning so`z boyligini aniqlash va rivojlantirib borish, so`z ma'nolarini to`g`ri anglash, o`z nutqlarida to`g`ri ishlatish imkoniyatlarini tug`diradi. Bolalar bilan o`tkazilgan har bir mashg`ulotlar, topshiriqlar ularning aqliy faoliyatini rivojlantiradigan, aqliy faoliyatini shakllantiradigan bo`lishiga alohida etibor berish zarur.

1.2.Yaxshi o`qish sifatlari va ularning shakllantirish yo`llari

O`qish malakasi murakkab malaka bo`lib, uni shakllantirish uzoq vaqtni talab etadi. O`qish faoliyatning asosiy turi bo`lib, o`quvchilarni g`oyaviy-siyosiy, aqliy, estetik va nutq jihatidan rivojlantirish uchun katta imkoniyat yaratadi. Bular o`qish malakasini o`stirish va takomillashtirish ustida muntazam va maqsadga muvofiq ishlash zarurligini ta`kidlaydi.

Boshlang`ich sinflarda o`qish darslarining deyarli barchasida yangi matnlar ustida ish olib boriladi. Hikoya, ertak, she'r, masal va ilmiy-ommabop maqolalar ustida ishlashda o`ziga xos tartib-tizim bo`lgani holda, har bir mashg`ulotda o`quvchilarning ongli, to`g`ri, ifodali, tez va ichdan o`qish malakalarini shakllantirish uchun muayyan usullar qo`llanib, ularga xos ishlar mashqqa aylanib boradi.

O`qish darslarida ta`lim-tarbiya vazifalari o`quvchilarga bilim va ko`nikmalarning ma`lum majmuini egallatishni, ularda komil inson uchun zarur bo`lgan shaxsiy sifatlarni shakllantirish bilan bog`lab amalga oshiriladi.

2-sinfda o`quvchilarga so`zlarni butunligicha sidirg`asiga o`qish malakasi shakllanadi. O`qishning to`g`ri ifodali bo`lishiga erishiladi. O`qish sur`ati tezlashadi. Bu sinfda o`quvchilar matnning ayrim qismlarini, qisqa hikoyalarni ichida mustaqil o`qishga o`tadilar. Matn ustida ishlash murakkablashib boradi. Bolalar o`qituvchi rahbarligida asarning asosiy mazmunini aniqlaydilar, qahramonlarning hatti xarakatini ifodalovchi so`z va iboralarni topishga, voqea-hodisalarni so`z bilan tasvirlashga o`rganadilar. Ularda so`z boyliqga talab ortadi.

Ifodali o`qishning ta`sirini o`quvchilarning nigohlaridan, ko`zlaridan yaqol bilishimiz mumkin. Lekin badiiy matnni emotsional idrok etish samarasi asarning hayotiy mazmuniga o`quvchilarning bevosita emotsional javoblaridangina iborat emas. O`quvchilarni asarning intonatsional qurilmasida muhrlangan muallif tuyg`ulari va badiiy asarga xos bo`lgan asosiy intonatsiya ta`sirlantiradi. Busiz estetik kechinmalar paydo bo`lmaydi, busiz asar ustidagi tahlil jarayonlarini samarali tashkil etish mumkin emas.

**O`qish darslarida** bilim, ko`nikma, malakalarni tekshirish jarayoni quyidagi tartibda bo`lishi mumkin:

1. O`tgan darsda o`qilgan asar mavzusi, uyga berilgan topshiriqlar mazmunini aniqlash.
2. O`qilgan dars mazmuni bo`yicha suhbat; asar matnini tahlil qilishva baholash.
3. Asarningmazmunini so`zlatish va baholash.
4. Asarni o`qish sifati (ongli, to`g`ri, ifodali, tezo`qish kabilar)ni tekshirish va baholash.
5. Yangi mavzu – asar mazmuni yoki matni bo`yicha berilgan topshiriqlarni tekshirish va baholash.

O`qish malakalari deganda badiiy asar matnini to'g'ri, tez, ongli va ifodali o'qish tushuniladi. O'qish darslarida o'quvchilarning o'qish malakalari shakUantiriladi va takomillashtiriladi.

O'qish malakasining sifatlari o'zaro bog'liq bo'lib, ularning asosi **ongli o'qish** hisoblanadi.

O'quvchi matnni tez va to'g'ri o'qisa-yu, anglab o'qimasa yoki uning tez o'qishi natijasida boshqalar matn mazmunini tushunmasa, to'g'ri o'qisa-yu, o'ta sekin o'qisa, nutq birliklari orasida to'xtamlatga e'tibor bermasa, matnda ifoda etilayotgan fikr tushunilmaydi. Muayyan tezlikda va to'g'ri o'qish ongli o'qishga xizmat qiladi, to'g'ri, tez va ongli o'qish esa ifodali o'qishning asosi hisoblanadi.

O'qish malakalarini egallash maktabda o'qitiladigan barcha pred-metlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishning muhim sharti hisoblanadi. O'qish faoliyatning asosiy turi bo'lib, o'quvchilarni g'oyaviy-siyosiy, aqliy, estetik va nutqiy tomondan rivojlantirish uchun juda katta imkoniyat yaratadi. Bu jarayon esa o'qish malakalarini o'stirish va takomillashtirish ustida tizimli va maqsadga muvoliq ishlashni talab qiladi.

O'qish so'z. ma'nosini idrok qilish bilan amalga oshadi. O'quvchilar sintetik bosqichga 3-sinfda o'tadilar. Bundan keyingi yillarda o'qish **avtoniatlasha** boradi.

O'qish darslarida asar ustida ishlashni shunday tashkil etish kerakki, asar mazmunini tahlil qilish o'qish malakalarini takomillashtirishga yo'naltirilgan bo'lsin.

To'g'ri o'qish. To'g'ri o'qish deganda xato qitmasdan, yanglishmasdan o'qish tushuniladi, ya'ni to'g'ri o'qish so'zning tovush-harf tarkibini, grammatik shakllarini buzmasdan, so'zdagi tovush yoki bo'g'inni tushirib qoldirmay, boshqa tovushni qo'shmay, harflar o'r-nini almashtirmay. aniq talaffuz qilib, so'zga urg'uni to'g'ri qo'yib o'qish hisoblanadi. Demak, to'g'ri o'qish so'zning tovush tarkibini, grammatik shaklini buzmasdan adabiy-orfoepik me'yorlar asosida o'qishdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida idrok etish, talaffuz qilish va matn mazmunini tushunish o'rtasida puxta sintez yo'q bo'lgani uchun ular o'qishda xatoga yo'l qo'yadilar. Bu esa matn mazmunini tushunishni qiyinlashtiradi.

To'g'ri o'qish so'zning uzun-qisqaligiga, o'quvchining so'z boyligiga, ya'ni so'zning leksik ma'nosini qanchalik bilishiga hamda so'zning bo'g'in va morfemik tarkibiga bog'liq. O'quvchilar ko'pincha quyidagi sabablarga ko'ra xatoga yo'l qo'yadilar:

1. So'zni talaffuz qilish bilan uning ma'nosini tushunish o'rtasida puxta sintez bo'lmagani uchun bola so'zning oldin tovush to-monini ko'radi, uni talaffuz qilishga oshiqadi. So'zning ma'nosini esa e'tibordan chetda qoldiradi.

2. So'z ko'p bo'g'inli bo'lib, bola uni oldin eshitmagan bo'lsa, xatoga yo'l qo'yadi.

3. So'zning ma'nosini bilmaslik tufayli xatoga yo'l qo'yadi.

4. Tez o'qiyman deb xatoga yo'l qo'yadi.

5. To'g'ri o'qish yorug'likka va yorug'likning tushishiga ham bog'liq.

6. Undosh tovush so'zning o'rtasida va oxirida kelgan yopiq bo'g'inli so'zlarni o'qishda qiynaladilar.

Xato o'qishning oldini olish uchun quyidagilar e'tiborga olinadi:

1. Matnni o'qitishdan oldin undagi o'qilishi qiyin so'z, birikma va gaplarni aniqlash va ular ustida ishlash usullarini belgilab olish. Tuzilishi murakkab so'zlarni bo'g'inlab o'qilishini mashq qildirish.

2. Matnni o'qishdan oldin uning mazmunini tushunishni qiyinlashtiradigan so'zlarning lug'aviy ma'nosini tushuntirish. So'z ma'nosini izohlash usullarini aniqlash.

3. Vazifalarni aniq va tushunarli qilib berish.

4. Matnni diqqat-e'tibor bilan o'qishlari uchun sharoit yaratish.

5. Oldin ichda o'qitish, so'ng ovoz chiqarib o'qitish.

6. O'qitishda o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish, ya'ni matnni oson, o'rtacha qiyinlikda va qiyin o'qiladigan o'rinlarini belgilab olib, unga kuchi yetadigan o'quvchilarga oldindan taqsimlab berish.

7. O'quvchilarning o'qishini muntazam tekshirib turish.

8. Xatoning xarakteriga qarab, uni metodik tomondan to'g'ri tuzatish yo'lini aniqlash.

9. O'quvchilarni xato qilish mumkin bo'lgan o'rindan ogohlantirib turish.

10. Xatcho'pdan foydalanish.

11. Xato o'qish o'quvchining shaxsiy ko'ruv sezgisiga bog'liq bo'lsa, bu jihatni ham hisobga olish.

O'qituvchining tuzilishi murakkab so'zlarni oldindan xattaxtaga yoki kartonga bo'g'inlarga bo'lib yozib qo'yib, o'quvchilarga ovoz chiqarib birgalikda o'qitishi yaxshi natija beradi.

O'quvchilar yo'l qo'ygan xato ikki xil yo'l bilan tuzatiladi:

1. O'quvchi so'z oxiridagi qo'shimchani noto'g'ri o'qisa, uni o'qishdan to'xtatmasdan xatoni to'g'rilash mumkin.

2. Xato o'qish bilan gaplarning mazmuni buzilsa, qayta o'qitish usulidan foydalaniladi. Bunda o'quvchiga o'qigan matni yuzasidan savol berilsa, o'quvchi e'tiborli bo'lib qayta o'qiydi.

Tez o'qish. Tez o'qish me'yoriy tezlikda o'qish bo'lib, bunda o'qish sur'ati matnning mazmunini tushunishdan ajralib qolmasligi kerak. O'qish tezligi matnni tushunish tezligi bilan muvofiq ravishda o'sib borishi lozim. O'qilayotgan asar mazmunini o'zlashtirishni, matn mazmunini ongli idrok etishni ta'minlaydigan o'qish **tez o'qish** deyiladi.

O'qish sifatlarini yaxshi o'zlashtirgan holda o'quvchilarning o'qish sur'ati bir-biridan farq qiladi. Bu dastur talablarini bajarmadi, degan gap emas. Og'zaki nutq tempiga to'g'ri keladigan o'qish sur'ati normal tezlik hisoblanadi. Chunki o'ta tez ham, o'ta sekin o'qish ham matn mazmunini o'zlashtirishni qiyinlashtiradi.

O'qish tezligi bir daqiqada o'qiladigan so'zlar soni bilan belgilanadi. 2005-yilda e'lon qilingan o'qish dasturida 1-sinfning 2-yarim yilligida o'qish sur'ati 20—25 so'z (notanish matnni o'qish tezligi ham 20—25 so'z); o'quv yili oxirida 25—30 so'z; 2-sinfning 1-yarim yilligida matnni o'qish tezligi 30—35 so'z; 2-yarim yilligida 40—50 so'z; 3-sinfning 1-yarim yilligida 60—70 so'z; 2-yarim yilligida 70—80 so'z; 4-sinfning 1-yarim yilligida ichda ovozsiz 110—130 so'z, ovozli o'qishda 90—100 so'z deb belgilangan.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, bir daqiqada bola 250 so'zli matnni o'qisa, undagi 200 ta so'zni eslab qolar ekan. Agar harflab, bo'g'inlab o'qisa, uning diqqat markazida so'z emas, bo'g'in bo'ladi. Natijada u so'zlarni eslab qola olmaydi⁹. Bu 4-sinf o'quvchilarining o'qish tezligiga tatbiq etilsa, 125 so'zdan 100 so'zni eslab qoladi. Bu esa yuqori ko'rsatkichlarga erishish imkonini beradi. 4-sinfda bir daqiqada 170—180 ta so'z o'qiydigan o'quvchilar ham bor.

O'qish tezligi to'rt yil davomida to'g'ri va ongli o'qish bilan bog'liq holda asta ortib boradi. O'qish tezligini tekshirganda o'qituvchi o'qiladigan materialning xarakterini, ya'ni g'oyaviy-mavzuviy murakkab-ligini, so'z va

gaplarning tuzilishini, ularning bolalar nutqida qay dara-jada ishlatilishini, o'qishning to'g'ri va ongli bo'lishini hisobga oladi. O'quvchilarning o'qish tezligi har xil bo'ladi, albatta. O'qituvchining vazifasi barcha o'quvchilarning o'qish tezligini, iloji boricha bir xil-likka keltirishdan iborat. O'qish sur'atini oshirishda tez aytishlarni, maqollarni yod oldirish va matnni ovoz chiqarib o'qishni mashq qilish kabilar samarali usullardan hisoblanadi.

Ongli o'qish. Ongli o'qish yaxshi o'qishning asosiy sifati hisoblanadi. Ongli o'qish o'qilgan matnning aniq mazmunini, asarning g'oyaviy yo'nalishini, obrazlarini va badiiy vositalarining rolini tushunib o'qish, shuningdek, asarda tasvirlangan voqea-hodisalarga o'z munosabatini ifodalay olishdir. Ongli o'qish o'z navbatida, o'quvchilarning zarur hayotiy tajribasiga, so'zning leksik ma'nosini, gapda so'zlarning bog'lanishini tushunishga va bir qator metodik shartlarga bog'liq. Hozirda ongli o'qish atamasi adabiyotlarda va maktab tajribasida ikki ma'noda: birinchidan, o'qish jarayonini egallashga nisbatan o'qish texnikasi ma'nosida, ikkinchidan, keng ma'nodagi o'qishga nisbatan o'qish sifatlaridan biri ma'nosida qo'llanadi.

Matnni ongli o'qish uchun o'quvchilar to'g'ri, me'yorida o'qishni egallagan bo'lishlari va o'qish jarayonida qiynalmasligi talab etiladi. O'quvchilar matnni ongli o'qishlari uchun matn mazmuni va badiiy vositalari jihatidan tahlil qilinadi.

Ongli o'qishning muhim sharti asar qurilishi va mazmunini tushunish hisoblanadi. O'qituvchi ongli o'qishni matnni ifodali o'qishga (agar ovoz chiqarib o'qilsa) va asar mazmuni yuzasidan berilgan savollarga javobning to'g'riligiga, asar voqealari va qahramonlarning xatti-harakatiga bildirgan munosabatiga qarab baholaydi. Ongli o'qish va ifodali o'qish bir-birini taqozo qiladi, ammo bir-biriga ayrian o'xshamaydigan o'qish sifatlaridir.

Ifodali o'qish. Ifodali o'qish intonatsiya — ohang yordamida asarning g'oyasi va jozibasini to'g'ri, aniq, yozuvchi niyatiga mos ravishda ifodalay bilishdir. Shunday ekan, har qanday badiiy asarni ifodali o'qish orqali o'quvchilarni asar mazmun-mohiyati bilan tanishtirishga erishildi. Bundan tashqari

asar ustida olib boriladigan asar tahlilida o'quvchi e'tibor berishi kerak bo'lgan o'rinlari o'qituvchining ohangi orqali etarlicha sezilib turadi.

Intonatsiya (ohang). Intonatsiya og'zaki nutqning birgalikda harakat qiluvchi elementlari: urg'u, nutq tempi va ritmi, pauza, ovozning past-balandligining yig'indisidir. Bu elementlar bir-biriga ta'sir etadi va hammasi birgalikda asarning mazmunini, g'oyasini, qahramonlarning turli kayfiyatini, ichki kechinmalarini ifodalaydi.

O'quvchilar ifodali nutq asoslarini egallashlari uchun muhim shartlar quyidagilardan iborat:

1. Nutq jarayonida nafasni to'g'ri olish va to'g'ri taqsimlay bilish.
2. Har bir tovushning to'g'ri artikulatsiyasi va aniq diksiya (burro gapirish) malakasini egallash.
3. Adabiy talaffuz me'yorlarini egallash.

Bu shartlar faqat ifodali o'qishgagina emas, balki ifodali nutq-qa, ya'ni hikoya qilishga ham taalluqlidir. O'quvchining har qanday og'zaki hikoyasi ifodali bo'lishi zarur.

Ifodali o'qishning asosiy vositalaridan biri ovozdir. Ovoz nafas bilan uzviy bog'lanadi. Shuning uchun o'qituvchi bolalarning ifodali nutqi ustida ishlashni talaffuz qilayotganda o'z nafasini boshqara olish va ovozdan to'g'ri foydalanishga o'rgatishdan boshlaydi. Ovoz kuchi baland-pastlik, uzun-qisqalik, tezlik (temp), yoqimli-yoqimsizlik xususiyatlari bilan xarakterlanadi. O'quvchilar matn mazmuniga qarab, baland yoki past ovozda o'qish (gapirish)ga, nutqda tez, o'rtacha yoki sekin tempni tanlashga, biror tuyg'uni ifodalashga o'rganadilar. Ifodali o'qishga o'rgatishda o'quvchilar pauza va logik urg'u bilan ham tanishtiriladi.

Ifodali o'qishga tayyorlanish shartli ravishda uch bosqichga bo'linadi:

1. Asarning aniq mazmunini tushunish, unda qatnashgan shaxslarning xatti-harakatini tahlil qilish, asarning g'oyasini belgilash, ya'ni asarning g'oyaviy-mavzuviy asosini, uning obrazlarini badiiy vositalari bilan yaxlit holda tushunish.

2. Matnning qaysi joyida to'xtam (pauza) qilishni, mantiqiy urg'uning o'rnini, o'qish tempini belgilab olish.

3. O'qishni mashq qilish, muallif fikrini, uning tasvirlangan voqea-hodisalarga va qatnashuvchi shaxslarga munosabatini ovoz bilan ifodalay olish uchun matnni qayta o'qish.

Asarning mazmuni va g'oyaviy yo'nalishini tahlil qilish ifodali o'qishga o'rgatish bilan bog'lab olib boriladi. Ifodali o'qishga o'rgatishda matn mazmunini tushunish, muallif hikoya qilgan voqealarga o'z munosabatini bildirish asosiy vazifa hisoblanadi. O'quvchilarda ifodali o'qish malakasini shakllantirish uchun asarni o'qituvchining ifodali o'qishi muhim ahamiyatga ega.

O'qish turlari

Boshlang'ich ta'limda o'qishning uch turidan foydalaniladi:

1. Ovozli o'qish.
2. Ichda o'qish.
3. Shivirlab o'qish.

Ovozli o'qish ovozga asoslangan o'qish bo'lib, undan ta'lim jarayonida keng foydalaniladi.

Ovozli o'qishning yakka, jo'r va rollarga bo'lib o'qish usullari mavjud. Yod aytish ham ovozli o'qishning bir shaklidir.

Ichda o'qish ham tovushga asoslangan, lekin unda ovozsiz o'qiladi.

Shivirlab o'qish yarim ovoz bilan o'qishdir. Malakali kitobxon o'qishning har uch turini bilishi zarur. Ovozli o'qishning ham, ovozsiz ichda o'qishning ham, shivirlab o'qishning ham o'z qo'llanish o'limi va afzalliklari hamda kamchiliklari bor. Masalan, 2-sinf o'quvchilari ichda o'qiganda kam so'z o'qiydi, so'zning ma'nolarini tushunmay qoladi, o'qiganlarining mazmunini to'liq o'zlashtira olmaydilar.

Psixologik izlanishlar shuni ko'rsatadiki, o'qishni endi o'rganayotgan o'quvchilar o'qilayotgan matnni tushunib borishlari uchun eshitish sezgisiga ham e'tibor qaratganlar. Ikkinchidan, 2-sinf o'quvchilarida o'qish

ko'nikmalari yaxshi shakllanmagani uchun ichda o'qish jarayonida ayrim so'zlarni noto'g'ri o'qish natijasida uning ma'nosini tushunmaganlar. Shularni nazarda tutgan holda, 1-2-sinflarda ovozli va shivirlab o'qishdan foydalaniladi.

3-4-sinflarda ovozli o'qish bilan birga ichda o'qishdan ham foydalaniladi. Bu sinflarda ichda o'qish ancha samarali bo'ladi, lekin bunda ichda o'qish mexanik o'qishga aylanmasligi kerak. Ichda o'qish biror maqsadga yo'naltirilishi, ya'ni quyidagicha turli topshiriqlar asosida ichda o'qitilishi lozim:

- She'rni ichingizda o'qib, ifodali o'qishga tayyorlaning.

- Ichda o'qing, ma'nosi tushunarsiz so'zlarni aniqlab, lug'at daf-taringizga yozing. Lug'atdan foydalanib, ularning ma'nosini izohlashga harakat qiling.

- Hikoyani ichingizda o'qib, uni qismlarga bo'ling.

- Ichingizda o'qib, ovoz chiqarib to'g'ri o'qishga tayyorlaning.

- Ichingizda o'qing. Tabiatning ko'rinishi tasvirlangan o'rinni toping.

Bu kabi topshiriqlar sinfdan sinfga o'tgan sari murakkablashib boradi. Bunda o'quvchilarning asarni qanchalik idrok etganliklari tekshirilib borilishi zarur.

Ichda o'qish quyidagi afzalliklarga ega:

1. Bir vaqtning o'zida butun sinf o'quvchilari o'qiydi.

2. O'quvchilarda asar matni ustida mustaqil ishlash ko'nikmalari takomillashadi.

3. O'qituvchi har bir o'quvchining mustaqil ishlash jarayonida o'zlashtirish darajasini aniqlaydi.

4. Ichda o'qishda ongli o'qishga talab va e'tibor kuchayadi. Ichda o'qishda o'qituvchi o'quvchilar o'qishidagi kamchiliklarni aniqlay olmaydi. Bu undan foydalanishni cheklab qo'yadi.

Ovozli o'qishning afzalliklari quyidagilar:

1. O'qituvchi o'quvchilarning xato va kamchiliklarini, o'qish ko'nikmalarini aniqlay oladi.

2. Kichik yoshdagi o'quvchilar ovoz chiqarib o'qisalar, matn mazmunkii tez tushunib oladilar.

3. Ovozli o'qishdan kitobxon estetik zavq oladi.

4. Ovozli o'qishda ifodalilikka katta e'tibor beriladi.

5. Ovozli o'qish o'quvchilar lug'atini boyitish va nutqini o'stirishda katta ahamiyatga ega.

Shivirlab (yarim ovozli) o'qish darsning tashkiliy qismlarida, o'qituvchi sinf jurnali bilan mashg'ul paytda yoki o'quvchilarni darsga tayyorlash bosqichlarida o'tkaziladi.

Maktabda o'qishning bu uch turi almashtirib turiladi. 1 -2-sinflarda ovozli va shivirlab (pichirlab) o'qishdan ichda o'qishga o'tilsa, 3-4-sinflarda ichda o'qishdan ovozli o'qishga o'tiladi. 3-4-sinflarda o'qish turlaridan foydalanishda chegara qo'yilmaydi.

Boshlang'ich sinflarda o'qishning hamma turiga bir xil talab qo'yiladi, ya'ni o'qish to'g'ri bo'lishi, tez, ongli va ifodali bo'lishi zarur.

II bob. Bo'limdagi she'riy asarlarni o'rgatish

2.1. Boshlang'ich sinfda she'riy asarlar ustida ishlash

She'r ohang jihatidan ma'lum bir tartibga solingan, his-tuyg'u ifodasi sifatida vujudga kelgan hayajonli ritmik nutqdir. She'riy nutqni ohang jihatidan ma'lum bir tartibga solish vositalari ritm (bir-biriga monand kichik bo'laklarning izchil va bir me'yorda takrorlanib kelishi) va qofiya (misralarning oxirida keladigan ohangdosh so'zlar) hisoblanadi.

She'r matnini qayta bayon qilish she'rdagi har bir so'z, sintaktik shakl va ohangni yaxlitlikda o'rgatish zaruratidan kelib chiqqandir.

She'rni o'qiganda kichik yoshdagi o'quvchilar tabiat va jamiyat voqea-hodisalarining poetik tasviridan hayajonlanishlari muhim ahamiyatga ega. Boshlang'ich sinflarda she'r tarzida yozilgan hikoyalar, ertaklar, ya'ni she'riy asarlar va lirik she'rlar o'qitiladi.

Kitob bo'limiga kiritilgan she'riy asarlar bolaga maktabning inson hayotidagi ahamiyati, ilm olish aqliy tafakkur, ma'naviy kamolot taraqqiyotiga ta'sir etishi haqida tasavvur hosil qilishga yordam beradi.

O'qish kitobini tuzishda shu narsaga e'tibor beriladiki, tuzilayotgan har bir bo'limda o'quvchilarni g'oyaviy, siyosiy, axloqiy tomondan tarbiyalovchi, mehnatga muhabbatni uyg'otuvchi, tabiatni muhofaza qilishga undovchi asarlar asosiy o'rinda turishi kerak. O'qish kitoblariga kiritilgan tabiat va kishilar mehnati haqidagi yuksak badiiy asarlarni o'qib tahlil qilish bilan bolalar o'z bilimlarini borliq haqidagi yangi ma'lumotlar bilan boyitadilar, ularda tabiatga muhabbat tarbiyalanadi, tabiat boyliklariga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga odatlanadilar.

O'qish kitoblarida turli janrdagi badiiy asarlar va ilmiy ommabop maqolalar beriladi. Jumladan, I-IV sinflarda doston, masal, qo'shiq, ertak, latifa, afsona, hikoya, nasriy saj', she'riy san'atlar o'qitilishi kuzatiladi. Har bir janrdagi g'oyani o'quvchining idrok qilishi uchun turli o'qitish usullaridan foydalanishni talab etadi.

She`rni o`qish darslarida asosiy ish turi ifodali o`qish hisoblanadi. O`quvchi she`rning g`oyaviy mazmunini tushunsagina ifodali o`qiy oladi. Shuning uchun she`rni tahlil qilib, uning mazmunini o`quvchilarga tushuntirish lozim.

She`rni o`qishdan oldin ba`zan unda tasvirlangan, yil fasllari haqida suhbat o`tkazish yoki she`r mazmunini tushunish uchun o`quvchilar bilishi lozim bo`lgan voqealarni o`qituvchi qisqacha so`zlab bersa maqsadga muvofiq bo`ladi. Masalan, Zafar Diyorning «Bahor keldi» she`rini o`qishdan oldinroq tabiatni kuzatish, boqqa, qir-adirlarga ekskursiya o`tkazish maqsadga muvofiq.

Lirik she`rni ham, she`riy hikoyani ham o`quvchilar hayajon bilan yaxlit idrok etishlariga erishish muhimdir. O`qituvchi she`rni shunday ifodali o`qishi kerakki, bolalar uning asosiy mazmunini anglasinlar, ularga jonli so`z kuchliroq ta`sir etsin.

O`qish oddiy bo`lishi kerak. O`qiyotganda tabiiy zavq-shavq, shodlik xursandlik, qaxr-g`azab hissini qichqirib ovoz bilan soxta ifodalashga yo`l qo`ymaslik zarur. Bolalar she`rni o`qiganda, she`riy satrga rioya qilishlari, she`r ritmini buzmasliklariga erishish lozim. She`r mazmuni ham boshqa janrdagi badiiy asar singari savollar asosida tahlil qilinadi. O`quvchilarga ko`p savol berish tavsiya qilinmaydi. Ular she`rni asosiy mazmunini tushunganliklariga ishonch hosil qilishning o`zi kifoya. Masalan I-sinf o`quvchilari M.Ikromovning «Qish» she`rini o`qiganda, «qaysi fasl haqida o`qidingiz?» savoliga javob berishlari yetarli.

Shuni ham aytish kerakki, bolalar hayoti, ularning o`ziga xos fikrlari, his-tuyg`ulari, qiziqishlarini ifodalovchi, shuningdek vatanimiz tarixi, mustaqilligi, o`zbek xalqi, urf-odatlar, milliy bayramlari haqidagi she`rlar mazmunini to`liqroq tahlil qilish talab etiladi.

She`riy hikoya, she`riy ertaklarda sujet, ya`ni voqealar tizimi va uning rivoji xarakterlidir. Lirik she`r „biror hayotiy voqea-hodisa ta`sirida insonda tug`ilgan ruhiy kechinma, fikr va tuyg`ular orqali turmushni aks ettiradi“. Lirik she`rning xususiyati „kishining his-tuyg`uga to`la hayajonli nutqini ta`sirliroq ifodalashda qo`l keladi“.

Lirik she`rni o`qish va tahlil qilish o`qituvchidan katta mahorat talab qiladi. Holbuki, ko`p hollarda she`rga oddiy matn nuqtai nazaridan

yondashiladi. Bunday holda she'riy san'at hissiyot bilan bog'liq ekanligi unutiladi, she'r ma'nosining satrlar, so'zlar zaminida yashirin berilishi anglab yetilmaydi. Buning oqibatida o'quvchilar she'rdagi obrazlilikning mag'zini chaqa olmaydilar. Vaholanki, har qanday asar zaminidagi yashirin ma'noni uqish mehnattalab ishdur. Busiz hatto adabiy ta'limning maqsadi ham amalga oshmaydi.

She'riy ohangni his qilmaslik, matndagi so'zlaming ma'nosini to'la tushunib yetmaslik she'r yodlashni zerikarli mashg'ulotga aylantiradi. Ma'nosi anglanmagan matnni yodlash oson kechmaydi. Buni deyarli barcha sinflarda o'rganiladigan „O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi" misolida ko'rish mumkin. Ma'lumki, madhiya kichik yoshdagi bolalarga mo'ljallab maxsus yaratilmaydi. Binobarin, uning matnidagi „huro'lka", „to abad", „ilm-u fan", „shuhrating", „ajdod-lar", „mardona ruhi sengayor", „o'chmas iymoni", „istiqlol mash'ali", „tinchlik posboni", „haqsevar ona yurt", „mangu bo'lobod", Jo'sh urgan" kabi ko'pdan-ko'p so'zlar, iboralar o'quvchilarga izohlab tu-shuntirilmasa, ta'limdan ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi.

4-sinfda Q. Hikmatning „Qish to'zg'itar momiq par" she'rini o'rganishda albatta tabiat manzaralarini izohlash talab etiladi. She'rni o'qishdan oldin unda tasvirlangan yil fasllari haqida suhbat o'tkaziladi yoki she'r mazmunini tushunish uchun o'quvchilar bilishi lozim bo'lgan voqealarni o'qituvchi qisqa qilib aytib beradi.

Ma'lumki, qish fasli go'zal ko'rinishi bilan odamda yoqimli tuyg'ular uyg'otadi. Qishda bolalar chana uchish, qorbobo yasash, qorbo'ron o'ynashdan olam-olam zavq oladilar. Qishdagi sof va toza havogina emas, oppoq qorga burkalib turgan daraxtlar, dala-bog'lar kishida ajib bir kayfiyat uyg'otadi.

„Qish to'zg'itar momiq par" (Quadrat Hikmat) she'rini o'rganish jarayonida agar qor yog'magan bo'lsa, ayni manzara tasvirlangan rasmlardan foydalanish ham mumkin. Qish fasli haqida gapirilar ekan, albatta,

„kumush" sifati qo'shib aytiladi. Bu shu fasl hukmronligi davridagi manzaraga, qorning oppoq bo'lib tovlanishiga, ko'zlarni qamashtirishiga ishoradir. Ushbu she'rni o'rganish darsi dastlab o'quvchilarning qish fasli haqidagi tushunchalarini aniqlashdan boshlanadi. Qishning o'ziga xos belgilari, qishda o'ynaladigan o'yinlar, qish manzarasi yuzasidan savol-javob o'tkaziladi. O'quvchilarning qish faslida sovuq bo'lishi tufayli ayrim qushlarning o'lkamizni tark etib janubga uchib ketishlari, qishda sovuqqa mos issiq kiyimlarning kiyilishi haqidagi tushunchalari aniqlashtirilib, to'ldiriladi. Shundan so'ng o'qituvchi she'rni ifodali o'qiydi.

Boshlang'ich sinflarda ko'rgazmali ta'limning asosiy shakli she'rni ifodali o'qish hisoblanadi. Lirik she'rni ham o'quvchilar hayajon bilan yaxlit idrok etishlariga erishish muhim. Shuning uchun she'r birinchi marta o'qilganda, hech qanday tushuntirish berilmaydi. She'r o'quvchilarga qanday ta'sir qilganini hisobga olish, bilish zarur. O'qituvchi she'rni shunday ifodali o'qishi kerakki, bolalar uning asosiy mazmunini anglasinlar, ularga jonli so'z kuchliroq ta'sir etsin. So'ngra she'rni mustaqii o'qish topshiriladi. O'qish oddiy bo'lishi kerak. O'qiyotganda tabiiy zavq-shavq, shodlik, xursandlik, qahr-g'azab hissini qichqiriq ovoz bilan soxta ifodalashga yo'l qo'ymaslik zarur. Bolalar she'rni o'qiganda, she'riy satrga rioya qilishlari, bu jarayonda ularning she'r ritmini buzmasliklariga erishish kerak.

O'quvchilar she'r matnini mustaqii o'qiyotganlarida xattaxtaga ma'nosi izohlanadigan so'zlar yozib qo'yiladi. Masalan, „Qish to'zg'itar momiq par" she'ri o'rganilganda „to'zg'itar", „momiq par", „oq namat", „nazdimda", „zarra" so'zlari izohlanadi. Shundan so'ng, she'r o'quvchilarga navbat bilan o'qittiriladi, uning mazmuni yuzasidan savollar asosida suhbat o'tkaziladi. Bunda quyidagieha savollar berilishi mumkin: „She'rda qaysi fasl tasvirlangan ekan?", „Shoir qor yoqqan joylarni nimaga o'xshatadi?", „She'rda qoryog'ishi nimaga qiyoslan-gan?", „Shoir qorga qanday murojaat qiladi?". O'qituvchi berilgan javoblarni toidirib, o'quvchilarning qish fasliga doir tushunchalarini boyitadi.

She'r matni ham savollar asosida tahlil qilinadi. Ammo, she'r mazmuni haqida o'quvchilarga ko'p savol berish tavsiya etilmaydi. O'quvchilar she'rning asosiy mazmunini tushunganliklariga ishonch hosil qilishning o'zi kifoya. Shuni ham aytish kerakki, bolalar hayoti, ularning o'ziga xos fikrlari, his-tuyg'ulari, qiziqishlarini ifodalovchi\ shuningdek, zamonamiz qahramonlari, o'zbek xalqi, Vatan himoyasi, xalqimizning qahramonona ishlari haqidagi she'rlar mazmunini to'liqroq tahlil qilish talab etiladi. Bunday she'rlarni o'qishga maxsus tayyorlaniladi: she'r mazmuniga asos bo'lgan tarixiy voqea haqida qisqacha so'zlab beriladi yoki suhbat o'tkaziladi.

Boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan ko'pgina she'rlarni tahlil qilib, ifodali o'qish mashq qilingach, ifodali yod aytib berish vazifasi topshiriladi.

She'riy nutq yengil yodlab olinadi, bolada estetik his-tuyg'u uyg'otadi. Kichik yoshdagi o'quvchilar saviyasiga mos bolalarbop ravshan til bilan yozilgan sodda ritmli jarangdor she'rlarni bolalar tez va oson yodlab oladi.

Kichik yoshdagi o'quvchilarga she'rni qanday yodlash kerakligi o'rgatiladi. Buning uchun o'qituvchi o'quvchilar bilan she'rni teng satrli bir necha qismga bo'ladi. O'quvchilarga har bir satr oxirida pauza (to'xtam) qilish, buning uchun satr oxirida tinish belgisi bo'lishi shart emasligi, ritmik to'xtamda ovozni nuqtadagi kabi pasaytirmaslik lozimligi, bu tugallanmagan fikrni davom ettirishga imkon berishi tushuntiriladi va bo'lingan qismlar navbati bilan yodfatiladi.

Epik (voqeyiy) she'rlar yoki she'riy usuldagi adabiy ertaklar kishilar hayotida yuz bergan yoki yuz berishi mumkin bo'lgan biror voqeani umumlashtirgan holda ifodalash bilan hikoyalarga o'xshaydi. Voqealarni ifoda etuvchi vositalarning ohang jihatdan tartibga solinishi, kichik bo'laklarning izchil va bir me'yorda takrorlanishi, misralarda ohangdosh so'zlarning qo'llanishi bilan she'riy nutq sanaladi. Shu sababli bunday asarlarni o'rganishda she'r va hikoya ustida ishlash metodikasidan foydalaniladi.

Epik she'rlarni o'qishga o'quvchilar alohida tayyorlanadi, ularda ifoda etilgan voqealar yuz bergan davr haqida tasavvur hosil qilinadi. Bunday she'darning mazmuni qay darajada o'zlashtirilganligiga ham alohida e'tibor qaratilishi lozim. Bunda ta'limiy vositalardan bo'lgan rasmlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Asar matni ustida ishlashda uni qismlarga bo'lish, har bir qismdagi asosiy fikrni aniqlash, reja tuzish va qayta hikoyalash, qahramonlarga tavsif berish va tarbi-yaviy xulosalar chiqarish kabi tahliliy ishlar amalga oshiriladi.

Epik she'rlarning nasriy asarlar kabi tuguni, kulminatsion nuqtasi, yechimi mayjud bo'ladi. Shu sababli asar mazmuni savol-topshiriqlar orqali tahlil qilinadi. Savol-topshiriqlar o'quvchilar tomonidan ham tuzilishi mumkin.

Bunday she'rlarni tahlil qilish asar voqealarini hamda qahramon holatlarini o'quvchi ko'z oldida yaqqol gavdalantirish imkonini beradi. Bunda ayrim epizodlarga rasmlar ham chizdirish mumkin.

Epik she'rlarning badiiy til vositalari ma'nolarini ochish, ohangdosh so'zlarni aniqlash, band va misralar, bo'g'inlar sonini belgilash, ifodali o'qish, ayrim epizodlarni yod oldirish kabi ish turlari qo'llansa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

She'rni izohli o'qish darsining tuzilishi quyidagicha bo'lishi mumkin:

- 1) she'r mazmunini yaxlit idrok etish uchun uni ifodali o'qib berish (birinchi sintez);
- 2) she'rda tasvirlangan payt, hodisa haqida suhbat (analiz);
- 3) she'rni ifodali o'qishni mashq qilish (ikkinchi sintez);
- 4) she'rni yod aytib berishga tayyorlanish;
- 5) epik (voqeiy) she'rlar ustida ishlash;
- 6) she'rdagi notanish so'zlar ustida ishlash.

2.2. «Maktab» she'rini ifodali o`qish va ta'limiy o`yin usulida o`rgatish

Odamzod o`z umri davomida qanday yutuq va natijalarga erishmasin, qayerda, qaysi lavozimda ishlamasin, maktab bag`rida kechgan yillari, olgan ta'lim-tarbiyasi uning yetuk inson va malakali mutaxassis bo`lib ishlashida naqadar beqiyos ahamiyatga ega ekanini barchamiz yaxshi anglaymiz. Maktab degan ulug`dargohning inson ulg`ayishi va jamiyat taraqqiyotidagi hissasi va ta'sirini hech narsa bilan o`lchab, qiyoslab bo`lmaydi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo`lamiz.

Islom Karimov

Ma'lumki, har bir mashg`ulotda o`qituvchi shu darsning o`zida amalga oshiriladigan maqsadni belgilab, ana shu maqsad yo`lida muayyan usul va mashqlarni qo`llaydi. Boshlang`ich sinflarda savod o`rgatish davridagi o`qish va yozuv darslari, sinfda va sinfdan tashqari o`qish darslari oldiga har bir mashg`ulot uchun qat'iy bir ta'limiy, tarbiyaviy maqsad qo`yilmasa, dars samaradorligiga erishib bo`lmaydi. Darsning oldiga qo`yilgan maqsad sari harakat bo`lmasa, ham ta'lim jarayonida mazmun bo`lmaydi.

Maktab – o`quvchilarda o`qish madaniyatini tarbiyalashning asosiy maskani bo`lib, o`quvchining kelajagini hal etuvchi, har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantiruvchi go`sha sifatida jamiyat rivojida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun men bitiruv malakaviy ishimda « Umida Abduazimovaning «Maktab» she'rini ifodali o`qish va o`yin usulida o`rgatishni o`z oldimga maqsad qilib qo`ydim.

Mavzu: « Maktab » (Umida Abduazimova)

Darsning maqsadi: ta'limiy maqsadi: she'riy asarlarni ifodali o`qishga o`rgatish; she'r matni ustida ishlashga o'rgatish; o'quvchilarda maktabning xususiyatlari, foydasi haqidagi tushunchalarini boyitish; o`quvchilarni mantiqiy xulosa chiqarishga o`rgatish.

tarbiyaviy: milliy qadriyatlarni e'zozlash, an'analarga hurmat;

rivojlantiruvchi: o'quvchilarni hayotda yetuk, barkamol, ma'naviyatli, madaniyatli inson qilib tarbiyalash, bilim berish; o'quvchilarning lug'atiga tashna, qadrdon, ziyrak, yetar qo'lim, chog` kabi so'z va ibora, tasviriy ifodalarni kiritish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, lirik she'r o'rganiladigan dars.

Dars uslubi: Suhbat, savol-javob.

Dars jihozi: Umida Abduazimovaning portreti, shoira haqidagi ma'lumotlar yozilgan ko'rgazma, darslik, ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar, test kartochokalari, maktab rasmi.

I.Tashkiliy qism:

Darsning borishi. Tashkiliy qisim: navbatchi hisoboti tinglanib, o'quvchilarni darsga tayyorlab, o'zimga diqqatini jalb qilaman.

Qisqacha savol-javob asosida suhbat o'tkazaman:

Vatanimiz – O'zbekiston

Poytaxtimiz – Toshkent

Prezidentimiz – I.A.Karimov

Maktabimiz – 8-umumta'lim maktab

Sinfimiz – 2- sinf

Darsimiz – O`qish

Savol: O'zbekiston Respublikasi qachon mustaqil deb e'lon qilindi?

Javob: O'zbekiston Respublikasi 1991 yil 31 avgust kuni mustaqil deb e'lon qilindi.

Savol: O'zbekiston Respublikasining davlat bayrog'i qachon qabul qilingan?

Javob: O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari o'tkazilgan VII sessiyasida 1991-yil 18-noyabr kuni tasdiqlangan.

Savol: O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi qachon qabul qilingan?

Javob: O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining X sessiyasida 1992-yil 2-iyul kuni tasdiqlangan.

III.Yangi mavzu ustida ishlash:

Yangi mavzu bayoni: O`quvchilar bugun biz sizlar bilan **Umida Abduazimov**aning «**Maktab**» she'rini o`qib, o`rganamiz. She'rni o`qishdan oldin men sizlarga shoira haqida qisqacha ma'lumot beraman.



Umida Abduazimova 1953-yilda Toshkent shahar Yunusobod tumani "Bobodehqon" mahallasida tug'ilgan. O'rta maktabni oltin medal bilan tugatib, Toshkent davlat universitetining jurnalistika fakultetiga o'qishga kirgan. O'qishni bitirgach, O'zbekiston televideniyesi adabiy ko'rsatuvlar muharririyatida ishlagan. 1990-1995-yillarda „Ma'rifat“ gazetasida bo'lim muharriri va bosh muharrir o'rinbosari vazifasida xizmat qildi. 1995-yildan buyon „Tong yulduzi“ gazetasida bosh muharrir lavozimida faoliyat ko'rsatmoqda.

Umida Abduazimovaning „Sevinchim“, „Seni ko'rgim kelaveradi“, „Arazlamang“, „Salom, hayot“, „Qadimiy qo'shiq“, „Oydin orzular“. „Umrin ziynati“, "Oymoma bog" nomli o'ndan ortiq she'riy va publitsistik to'plamlari o'z kitobxonlarini topgan.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Umida Abduazimova 1997-yil „Shuhrat“ medali bilan taqdirlangan⁷.

Hammangiz diqqat bilan quloq soling deb, **Umida Abduazimov**aning «**Maktab**» she'rini dastlab o`zim ifodali o`qib beraman:

Tashnadirman ilmga,
Yuraman seni maqtab.
Nur to`shading yo`linga,
Qadrdon ona maktab.

Mehring bilan yosh yurak
To`lib-toshar limmo-lim.
Bo`lsam bilimdon, ziyrak,

⁷ www.ziyouz.com kutubxonasi.

Yulduzga yetar qo`lim.

Tashnadirman ilmga,
Yuraman seni maqtab.
Nur to`shading yo`limga,
Qadrdon ona maktab.

«**Maktab**» she`rida shoira maktabning mohiyati va ulug`vorligini bir butunligicha kitobxon ko`z o`ngida gavdalandira olgan. Shoira jozibali misralar tuzib, bolalar e`tiborini maktabga tortadi, ularni ilm-fan asoslarini mukammal egallashga undaydi.

Dunyoda maktabdan aziz, mo`tabar joy yo`q, go`yoki «**Qadrdon ona maktab**» bir makon, kishining savodini chiqaradigan, o`zini-o`ziga tanitadigan, ongi va aqliga aql qo`shadigan ulkan maskan, degan g`oya ilgari suriladi va bolaning maktabdan behad minnatdorligi, o`zining oldida turgan bir qator vazifalar, el-yurtga sodiq farzand bo`lish uchun avvalo maktabda yaxshi va namunali o`qish kerakligi sodda va ravon misralarda ifodalab berilgan.

Umida Abduazimova o`z she`rida har bir kishi ko`nglidagi orzuga yetishi uchun maktabni sevishi, maktab qudratli qurol ekanligini uqtiradi va kitobni ma`rifat ramzi sifatida « **Qudratli qurol yo`qdir!**» deya qadrlaydi.

«Maktab» she`rida «Insonni inson qatoriga qo`shish», insonni kamolotga yetkazish va uni olijanob fazilatli kishi qilib yetishtirishda maktabning roli katta ekanligini ko`rsatadi. Shoira maktab tarbiyasining ahamiyatini yuksak baholaydi, uni sirlarning xazinasini, odamni odam qiladigan joy deb ko`rsatadi.⁸

Xulosa qilib aytganda, Umida Abduazimovanning asarlari bolalarni yaxshi o`qishga, ilm-fan cho`qqilarini egallashga, zamonamizning ilg`or kishilari bo`lib yetishishga chaqiradi.

III. Yangi mavzuni mustahkamlash:

Yangi mavzuni mustahkamlash jarayonida didaktik o`yinlardan foydalandik.

⁸ M.Jumaboev. O`zbek va jaxon bolalar adabiyoti. Toshkent. 1996.

O`quvchilarning aqliy va jismoniy rivojlanishida o`yindan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Bolalarga dars jarayonida beriladigan bilimlar har tomonlama puxta tashkil etilib, ularni qiziqtiradigan bo`lishi, darslarni o`yin mashg`ulotlarini o`z ichiga olib, ma'naviy-ma'rifiy ozuqa beradigan tarzda tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

Ta'lim jarayonida didaktik o`yinlar o`quvchilarning yosh xususiyatlariga ko`ra tashkil etiladi. O`yinlar maqsadiga ko`ra quyidagi omillarni o`z ichiga oladi: o`yinning vazifasi; o`yinning qoidasi; o`yinning yakuni.

Norasmiy darslarning yana bir shakli o`yin darslaridir. Bu darslarda har bir topshiriq o`yin tarzida tashkil etiladi. «Baliq ovlab o`ynaymizu, o`ylaymiz» o`yini “Berilgan kataklarni tez to`ldir” “Tovush juftlari bilan farqlanuvchi so`zlar ro`yxatini davom ettir” kabi o`yinlardan foydalanish mumkin. Tilga olinayotgan topshiriqlarning musobaqa tarzida tashkil etilishi uni qiziqarli o`yinga aylantiradi va g`oliblarni aniqlab, ularni rag`batlantirish imkoniyatlarini yuzaga keltiradi⁹.

Darsda turli o`yinlardan foydalanish barcha o`quvchining birdek faolligini ta'minlaydi. «Oddiydan murakkab sari, o`yindan bilim sari» tamoyiliga asoslanadigan noan'anaviy usullardan biri darsni o`yin usulda tashkil etishdir¹⁰. O`qituvchi o`z darsini sinfdagi barcha o`quvchilar to`liq o`zlashtirishni xohlaydi. Ammo bolalarning darsni qabul qilish qobiliyati turlicha bo`lganligi uchun buning imkonini bermaydi. Ta'lim jarayonida zamonaviy interfaol usullarni qo`llash bilan ushbu muammoga yechim topish mumkin.

Har bir o`yinni boshlashdan oldin o`quvchilarga o`yin qoidasi, mazmuni, yakuni nimadan iborat ekanini o`qituvchi tomonidan tushuntirib beriladi.

Quyida ana shu o`yinlardan namunalar keltirilgan:

«Bilimdonlar shashkasi yoki yashiringan savollar»

Bu o`yinda shashka toshlari o`rnida ixcham qutichalardan foydalanish mumkin. Bir xil rangga bo`yalgan qutichalar ichiga savol, topshiriq yoki hadis

⁹ Qodirov V. Noan'anaviy darslar. Andijon. 1996. B.33

¹⁰ Yusupova Sh. Noan'anaviy dars – davr talabi. Andijon.. 2002. B.20

maqollarning bittadan soʻzi yozilgan varaqalar joylashtiriladi. Raqibdan yutib olingan tosh ikki balni keltiradi. Ichidagi savolga javob topa olsa, topshiriqni bajara olsa, ular oʻz ochkosini yuqoriga koʻtarishi mumkin. Bu oʻyin bolalarni magʻlubiyatdan choʻchimaslikka, undan toʻgʻri xulosa chiqara olishga undaydi.

Bu usulda oʻquvchilar oʻzlari raqib jamoaga savollar tuzib kelib, qutichalarga joylashtirishi ham mumkin. Oʻyin orqali oʻquvchilar jamoa boʻlib ishlashni, oʻz bilganlarini sinfdoshlariga ham oʻrgatishga sharoit yaratadi.

Masalan,

Tashnadirman ilmga,

.....

She'rni qolgan misrasini oʻquvchilar davom ettiradi

Yosh oʻynoqi koʻzlarim

Shuur olar

.....

Yoki maqollardan foydalanish ham mumkin:

Ilmi

Oltin ol.

Oldinsoʻyla.

Olim seniki.

Hunar –

Harakat,

Gʻuncha va gul

Oʻyinda oʻtirganlar «gʻuncha», tik turganlar «gul» deb qaraladi. Savollarga toʻgʻri javob bergan oʻquvchi turadi, «gul sanaladi», agar savolga javob bera olmasa yoki notoʻgʻri javob bersa «gʻuncha» sanaladi, ya'ni oʻtiradi. Savol

tayyorlashda, savolni berish jarayonida o`qituvchi, albatta, o`quvchisining bilim darajasiga qarashi kerak. O`qituvchi bor mahoratini ishga solib, o`yin so`ngida barcha o`quvchilarini «gul»ga aylantirishga harakat qilishi kerak. Chunki yosh bolalar o`rtasida savolga javob berolmasa ustidan kulish, masxara qilish hollarini vujudga keltirmasligi kerak.

«Baliq ovlab o`ynaymizu, o`ylaymiz» o`yini

Bu o`yinda qutichadan daryo yasaldi, ichiga baliqchalar rasmi joylashtiriladi, quticha atrofi oq qog`oz bilan suv rasmi chizilgan holda o`rab chiqiladi. Baliqchalar beliga skrepka bilan mahkamalib, raqamlab qo`yiladi. Tarqatma varaqa tariqasida qog`ozga savollar yozilib, alohida qo`yiladi. Magnitdan qarmoq yasaldi va doskaga chiqqan o`quvchi daryodan baliq tutib, raqamiga qarab, tarqatma varaqadagi savollarga javob beradi. Bu o`quvchining qiziqishini orttiradi va o`quvchi doskaga chiqib baliq tutish uchun darsga ijodiy yondashib, tayyorgarlik ko`radi.

Boshlang`ich sinf o`quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda o`yinlar muhim rol o`ynaydi. O`yin orqali yuzaga keladigan ijodiy izlanish vaziyati o`quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishga, lug`at boyligini oshirishga xizmat qiladi va shu bilan birga o`quvchilarni jamoa bo`lib ishlashga o`rgatadi.

IV. Dars yakuni.

(Dars yakunida guruhlar ishi tahlil qilinib , darsda faol qatnashgan o`quvchilar reyting asosida baholanadi va rag`batlantiriladi).

V. Uyga vazifa. “ Maktab “ she`rini ifodali o`qish va yodlab kelish.

2.3. Tursunboy Adashboyevning “Ona tilim” she'rini suhbat va aqliy hujum metodi asosida o'rgatish

Suhbat metodi – o'quvchilar tomonidan bilimlarni o'lashtirish jarayoni. Ular etiboriga havola etilayotgan savollar mohiyatini anglash, mavjud bilimlar va tajribani safarbar qilish, savolga oid ob'yektlarni o'zaro taqqoslash, puxta o'ylashga savollarga to'g'ri javob tayyorlashdan iborat. O'qituvchining rahbarligida mavzuni qo'yish savollarni ifodalash, berilgan javoblarni tuzatish, to'ldirish va umumlashtirish kabi holatlarda namoyon bo'ladi.

Mavzu: “Til-millat ko'zgusi”

O'quv material. «Ona tilim» (Tursunboy Adashboyev)

Darsning maqsadi:

1. O'quvchilarni she'rni ifodali o'qishga, she'r matni ustida ishlashga o'rgatish; shoirning «Ona tilim» she'ri orqali tasvirlashdagi mahoratini ochib berish; o'quvchilarning tilimizga bo'lgan e'tibor yanada kuchaytirish, bu tilning davlat tili ekanligi haqida ma'lumot berish.
2. O'quvchilarning lug'atiga payvasta, mehr, dovrug' solmoq, meros, ohang olmoq, o'gay sanamoq kabi so'z va ibora, tasviriy ifodalarni kiritish.
3. O'quvchilarning mustaqil ishlash, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini oshirish.
4. Til - millatning asosiy belgilaridan biriligini uqtirish, xalqning, millatning o'zligini namoyon qilishida tilning o'ni katta va beqiyos ekanligini, ona tilini qadrlashga o'rgatish.

Dars turi: yangi bilim va ko'nikmalarni mustahkamlovchi, lirik she'r o'rganiladigan dars

Darsda qo'llaniladigan metodlar: suhbat, savol – javob, izohli o'qish, mustaqil ish metodi, tarmoqlash metodi.

Darsning jihozi: Tursunboy Adashboyev portreti, shoir haqidagi ma'lumotlar yozilgan ko'rgazma.

Darsning borishi:

I.Tashkiliy qism:

Darsning borishi. Tashkiliy qisim: navbatchi hisoboti tinglanib, o'quvchilarni darsga tayyorlab, o'zimga diqqatini jalb qilaman.

II.O'tilgan mavzuni mustahkamlash:

O'tilgan Ne'mat Toshpo'latning "Mukofat" hikoyasiga oid aqliy mashq o'tkazish. Partalararo mavzu mazmunini so'zlash. O'quvchilar bilimini suhbat, savol – javob, dam olish daqiqasi asosida baholash. O'quvchilar olgan baholarini izohlash, savol – javobda faol qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantirish.

III.Yangi mavzu ustida ishlash:

Yangi mavzu bayonni:

1. O'quvchilarda yangi mavzuni o'rganishga qiziqish uyg'otish.

O'qituvchi til haqida afsona qisqa so'zlab beriladi: Bir shoh vazirlariga: "Menga dunyodagi eng shirin va eng achchiq narsani keltiring" deydi, vazirlar shohga juda ko'p narsalarni ko'rsatadilar. Shoh ularni rad etadi. Shunda vazirlar Navoiyning huzuriga boradilar. Bo'lgan voqeani aytib beradilar.

Navoiy o'ylab ko'rib: "Shohingizga til olib boring",- deydi. Ular podshohga til olib borishadi. Shoh bu jumboqni Navoiy topganini bilib, uni huzuriga olib kelishlarini buyuradi. Shoh unga sarpolar hadya etib, uni vazir etib tayinlaydi.

2. O'quvchilarning til haqidagi tushunchalarini aniqlash.

Buning uchun tilimiz xaqidagi allomalarimiz so'zlarini aytish topshirig'i beriladi.

1-o'quvchi:

Tilga ixtiyorsiz - elga e'tiborsiz.

Navoiy

2-o'quvchi

Ko'ngil mahzanining qulfini til va ul mahzanning kalitin so'z bil.

Navoiy

3-o'quvchi

- Qachonki bir millat tilini yo'qotsa, u muqaddas dinini va millatini ham yo'qotur.

A.Zohiriy

Barakalla. Men ham shularga qo`shimcha tarzida o`zbek adabiyotining yirik namoyondasi, so`z ustasi Abdulla Qahhorning quyidagi fikrlarini keltirib o`tmoqchiman deydi:

“- O`zbek tili g`oyat boy, nihoyatda chiroyli, har qanday fikr va tuyg`uni ifoda qilishga qodir... Tilimizning boyligiga daxl qiladigan, xush latofatini buzadigan, tilimizni “zaxrir” qilishga qaratilgan qiliqlarga barham berish zarur”.

Tursunboy Adashboyevning “Ona tilim” she`rini, muallif haqida ma`lumot aytib o`tishdan oldin o`qituvchi o`quvchilar bilan til haqida qisqacha suhbat o`tkazib, ularga ayrim ma'lumotlarni yetkazadi.

O`zbekistan Respublikasining davlat tili to`g`risidagi qonuni 1989 yil 29 oktyabrda qabul qilingan. O`zbekistonimiz istiqloлга erishgach, tilimizga bo`lgan e`tibor ortib bormoqda. - Til - millatning asosiy belgilaridan biri. Dunyoda xalqlar ko`p. Avvalo bu xalqlar o`z tili, milliy urf-odatları va an`analari, o`ziga xos turmush tarzi bilan ajralib turadi. Binobarin, xalqning, millatning o`zligini namoyon qilishida tilning o`rni katta va beqiyosdir.

Ona tili - ezgu fazilatlar, yuksak tuyg`ular manbai. Chunki onalarimiz bizga shu tilda alla aytadi, inson uchun hayotiy zarur bilim va tushunchalarni mana shu til vositasida ongu shurimizga singdiradi, odobu ahloqimiz, fe`l-atvorimiz mana shu tilda berilgan o`git va nasihatlar asosida shakllanadi.

Hozirgi zamon o`zbek bolalar adabiyotining katta shoiri, yetuk tarjimon Tursunboy Adashboyev o`qishga ishtiyoqmand, qiziquvchan, tirishqoq bo`lib o`sdi.

Tursunboy Adashboyev qat`iy ichki intizomga ega odam. Bu xol uning ijodi sermahsul bo`lishiga olib keldi. Shu vaqtga qadar shoirning o`ttizga yaqin kitobi bosilib chiqqan. Asarlari o`zbek va qirg`iz bolalar she`riyati antologiyalari hamda darsliklaridan o`rin olgan. T.Adashboyev tan olingan tarjimon ham. U qirg`iz tilidagi yigirmadan ortiq kitobni o`zbekchaga ag`dargan. Jumladan, «Manas» eposini nashr yo`li bilan tarjima qilgan, T.Qosimbekovning «Singan qilich» tarixiy romani, To`g`tag`ul, S.Eraliev, S. Jusuev, B.Sarno`g`aev va boshqa o`nlab qirg`iz

adiblarining asarlarini o‘zbek tiliga o‘giran. Jahon bolalar she’riyatining K.Chukovskiy, S.Marshak, Yan Bjeva, Q.Mirza, Q.Junushev singari vakillari ijodi bilan o‘zbek o‘quvchilari uning tarjimasida tanishgan. Xattaxtaga „Ona tilim“ (Tursunboy Adashboyev) deb yoziladi.

Alla bo‘lib jaranglagan,

Ona tilim – jon-u dilim.

Unga axir payvasadir

Qadr-u qimmat, mehr, bilim

Buyuk Temur jahon bo‘ylab

Dovrug‘ini solgan tilim.

Mir Alisher bobomlardan

Meros bo‘lib qolgan tilim.

Bobur Mirzo she’rlaridan

Rang va ohang olgan tilim

Shunday tildan tonar bo‘lsam

Yoki o‘gay sanar bo‘lsam,

Qiyma-qiyma bo‘lsin tilim,

Ona tilim – jon-u dilim.

O'qituvchi hikoyasi.

Tursunboy Adashboyev – bolafe’l odam, bola ko‘ngil ijodkor bo‘lgani uchun ham bola ko‘ngliga oson yo‘l topadi.

Boshlangich sinf o‘quvchilari «O‘qish» darslarida shoirning shunday she’rlaridan foydalanishsa, darsning samarasi kutilgandan ziyoda bo‘lishi muqarrardir.

Tursunboy Adashboyev she’ri orqali yosh avlodning diqqat va e’tiborini ona tilinning muhim qudratiga tortadi, uni chuqur tushunishga undaydi.

Demak, shoir she’ridan kelib chiqadigan muhim xulosa shunchaki, ona tilini sevish vatanparvarlik belgisi, ajdodlar ruhiga hurmat ramzi. o‘z tilini asrab-avaylagan xalq o‘zligini asrab-avaylagan bo‘ladi. Til bilish - madaniyat belgisi. Xalqimiz ta’biri bilan aytganda, til bilgan el biladi. Ona tilini puxta bilish,

u bilan g`urur-iftixor qilish milliy ma'naviyat, o`zlik ifodasi bo`lsa, boshqa tillarni bilishga intilish madaniyat belgisi, qo`shimcha bilim quroliga ega bo`lishdir. Bu kabi xulosalar kichkintoylar ma'naviyatiga tezroq yetib boradi.

T.Adashboyevning she'rlari kichik kitobxonni fikrlash, munosabat bildirish va xulosa chiqarishga undaydi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

O'qituvchi savol beradi va javoblarni umumlashtirib, to'ldiradi:

Berilgan she'rni ifodali o'qing va uning nima haqida ekanini ayting.

- She'r muallifi kim ekan? U haqida nimalarni bilasiz?

„She'rda dastlab nimalar haqida gapiriladi?“, „She'rdagi fikr yuritilgan narsalami ketma-ket aytib bering“, „Shoir ona tilini ifodalashda qanday tasvir usullaridan foydalangan?“ kabi savol-topshiriqlardan foydalanish o'quvchilar faolligini oshiradi.

V. Uyga vazifa.

“ Ona tilim “ she'rini ifodali o'qish va yodlab kelish.

VI.Darsni yakunlash:

Darsda faol qatnashgan o'quvchilarni 5 ballik reyting asosida baholash, ularni rag'batlantirish. Xayrlashish.

III bob. Bo`limdagi hikoyalar ustida ishlash

3.1.Hikoya ustida ishlash metodikasi

«Ma'naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir», deb yozgan edi Prezidentimiz «Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch» asarida. Ma'naviyatning qaror topishida esa kitob bilan oshno tutinish, mutolaa madaniyatiga ega bo'lmoqning o'zni alohidadir¹¹.

Hikoya kichik hajmli badiiy asar bo'lib, unda kishi hayotidagi ma'lum bir voqea, hayotning muhim tomonlari umumlashtirib tasvirlanadi.

„Hikoya ko'pincha kishi hayotida bo'lgan bir epizodni tasvir etadi. Uning mazmuni ertakdagidan ortiqroq hayotiydir“¹².

Hikoya mazmunan boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mos janr hisoblanadi. Kichik yoshdagi o'quvchilarni qahramonlarning xatti-harakati, tashqi ko'rinishi, portret tasviri, voqea-hodisalar haqidagi hikoyalar ko'proq qiziqtiradi. Shuning uchun bolalarni hikoya bilan tanishtirish uning sujetini tushuntirishga bog'lab olib boriladi.

Boshlang'ich sinflarda hikoyani o'qishga bag'ishlangan izohli o'qish darslarida o'qilgan hikoya mazmunini ochish, lug'at ustida ishlash, o'qilgan matnni qayta hikoyalash kabilar asosiy ish turlaridan hisoblanadi. Hikoya mazmuni odatda savollar asosida tahlil qilinadi. So'roqlardan ikki maqsadda: hikoya mazmunini tahlil qilish hamda dalillar, mulohazalar, xulosalarni taqqoslash, voqea-hodisalar, xatti-harakat o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlash va umumlashtirish uchun foydalaniladi.

¹¹ I. Karimov. «Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch» Toshkent. Ma'naviyat 2008. B.19.

¹² K.Qosimova, S.Matchonov, X. G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva, Sh.Sariyev.

Oni o'qitish metodikasi. Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabalari uchun darslik. T.: «NOSHIR» nashri 2009. B.92.

Hikoyani o'qish darsida o'quvchilar tushunmaydigan so'z va iboralar ma'nosini tushuntirish ham muhim, aks holda ular hikoya mazmunini tushuna olmaydilar.

Hikoyani o'qishda uning mazmunini tahlil qilish va shu asosda o'quvchilar nutqini o'stirish markaziy o'rin egallaydi. Hikoya o'qib bo'lingach, o'quvchilar o'ylash'i, o'z mulohazalarini aytishi uchun tayyorlanishga vaqt berish kerak. O'qilgan asar yuzasidan beriladigan dastlabki savollardan maqsad hikoya bolalarga yoqqan-yoqmaganligi, undagi qaysi qahramonning xarakteri bolaga ta'sir etganini bilishdan iborat. Shundan keyingina hikoya sujeti, voqeaning yo'nalishini ochishga, personajlar xarakterini tushunishga, nihoyat, asarning asosiy g'oyasini bilib olishga yordam beradigan savollardan foydalaniladi.

Badiiy asarni tahlil qilishda sujetni to'liq tushuntirishga berilib ketib, qahramonlarga tavsif berish, asar qurilishi va tilini tahlil qilish kabi ish turlari e'tibordan chetda qolmasligi lozim.

Ertak janriga xos matnlar jozibadorligi bilan bolani o'ziga tortadi. Lekin hikoya janri ham hayotiyligi bilan o'ziga xos. Hikoyada voqealar tez rivojlanib boradi. Unda inson hayoti, u bilan bog'liq hayotiy lavhalar bayon etiladi. O'quvchilar qahramonlarning xarakteri, ulardagi xususiyatlar bilan qiziqadilar. Masalan, 3-sinf „O'qish kitobi"dagi „*Dadam qurgan dengiz*“ (Hakim Nazir), „*Olma*“ (Malik Murodov), „*Ilmli ming yashar*“ (Nurmat Maqsudiy), „*Xazonchinak*“ (O'. Hoshimov), „*Mehnatkash qiz*“ (Oybek) va boshqa qiziqarli hikoyalar berilgan. Ular mavzu jihatdan xilma-xil bo'lib, qahramonlarining xarakter-xususiyattari bilan ham farq qiladi¹³.

Hikoya biror bir davr bilan bog'liq bo'ladi. O'quvchilar qahramonlarning ma'naviyatiga bo'lgan qiziqishlari tufayli hayotning nurli va qorong'i tomonlari xususida muayyan tushunchaga ega bo'la bosh-laydilar. Ularda go'zallik va nafosatga muhabbat, yovuzlikka nisbatan nafrat tuyg'usi

¹³ T.G'afforova, Sh.Nurullayeva, Z.Mirzahakimova. O'qish kitobi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik. T.: «Sharq» nashryot-matbaa aksionerlik kompaniyasi Bosh tahririyati nashriyoti. 2012. B.19.

hikoyalar bilan tanishish va uni tahlil qilish davomida shakllanib boradi. Masalan, 3-sinfda *Jaloliddin Manguberdi*" hikoya-sida Chingizxon va uning qo'shinlariga nisbatan nafrat uyg'otilsa, Jaloliddin Manguberdining xatti-harakati misolida ona-Vatanga mehr-muhabbat uyg'otiladi, uning taqdiri orqali o'z ajdodlaridan faxrlanish tuyg'usi paydo bo'ladi.

Hikoya tahlili adabiy tur sifatida o'ziga xos xususiyatlari va vazifasidan kelib chiqib ish ko'rishni taqozo etadi. Undagi har bir so'z, ibora, gap yozuvchining fikrini ifodalashga xizmat qiladi.

Hikoya matni uning mazmunini yoki badiiy xususiyatlarini o'rganishdagina emas, tahlilning ifodali, adabiy, shartli yoki ijodiy o'qish, muammoli usullardan foydalanish uchun ham manba bo'lishi lozim.

Boshlang'ich sinflarda hikoya sujeti, kompozitsiyasi, qahramon-larini o'rganish bo'yicha turli tahlillar matn ustida ishlash asosida olib boriladi. Hikoyani o'rganishda savollarni, odatda, o'qituvchi beradi, ammo asar mazmuni, qatnashuvchi shaxslarning xulq-atvorini ochish yuzasidan o'quvchilarga ham savol tuzdirish juda foydali. Bu usul bolalarga juda yoqadi va ishni jonlantiradi, asar mazmunini yaxshi tushunish, o'z fikrini izchii bayon qilish malakasini egallash, mazmun va voqealar orasidagi bog'lanishni to'liq esda saqlab qolishda o'quvchilarga yordam beradi.

Hikoyani izohli o'qish darsini quyidagicha reja asosida olib borish mumkin:

1. Hikoyani o'qishga tayyorlash (hikoyadagi kabi odamlar hayoti va davrga xarakteristika berish va boshqa.).

2. Hikoyani o'qish (bunda to'liq va ma'no jihatdan tugal qismni o'qituvchi yoki oldindan tayyorlangan o'quvchi ifodali o'qishi mumkin).

3. Lug'at ustida ishlash.

4. Idrok etishni tekshirish (qatnashuvchilarning xatti-harakatlari, shaxslar va voqealar o'rtasidagi munosabatlar, badiiy vositalar yuzasidan qisqacha suhbat).

5. Hikoyani qayta o'qish (qismlarga bo'lib, rollarga bo'lib o'quvchilarga o'qitish).

6. Hikoyaning har bir bo'limi (qismi) yuzasidan suhbat uyushtirish, hikoya rejasini tuzish.
7. Reja asosida qayta hikoyalash.
8. Hikoya asosida ijodiy va mustaqil ishlar.
9. Hikoyani ifodali o'qishga yoki sahnalashtirishga tayyorlanish (sinfda yoki uyda).
10. Hikoyani ifodali o'qish va ifodali qayta hikoyalash.

3.2.«Ilm» hikoyasini izohli o'qish va suhbat metodi asosida o'rgatish «Ilm» Abdulla Avloniy.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi, hikoya o'qish darsi.

Dars shakli: tushuntirish, suhbat.

Asosiy masalalar. O'quvchilarga Abdulla Avloniy haqida ma'lumot berish, o'qish malakalarini takomillashtirish.

Tayanch tushunchalar. Ilm, dunyoning izzati, fazilat, zehn, fikr, jaholat qorong'iligi, ilmining foydasi, sohibi.

Darsda foydalaniladigan ta'limiy vositalar: Abdulla Avloniy rasmi, test topshiriqlari.

Dars metodi: izohli o'qish, tarmoqlash, muammoli o'qitish metodi.

Darsning maqsadi: I. O'tmishda yashab o'tgan vatandoshimiz Abdulla Avloniy shaxsi bilan tanishtirish, hayoti va ijodi haqida ma'lumot berish.

2.O'quvchilarni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash va o'qish malakalarini yanada rivojlantirish

3. O'quvchilar lug'atini boyitish, savol-topshiriqlar ustida ishlash.

Identiv o'quv maqsadi:

1. Hikoya matnini to'g'ri, o'quv sur'atiga mos, ongli va ifodali o'qish.
2. Asar matni yuzasidan berilgan topshiriqlarni yakka va juft bo'lib bajarish.
3. Matn mazmunini qayta hikoyalash.

Darsning borishi.

I. Da'vat bosqichi.

O'tmishda yashab o'tgan vatandoshimiz Abdulla Avloniy shaxsi bilan tanishtirish, hayoti va ijodi haqida ma'lumot berish.



0-asr boshlaridagi ma'rifatparvarlik harakatida Abdulla Avloniy 1904 yili Toshkentning Mirobod mahallasida yangi maktab ochdi. Bu maktabda savod o'rgatishning

yangi texnologiyasi joriy qilindi. Maktabning tez orada dovrug'i Toshkentning boshqa mahallariga tarqaldi.

1. Asar bilan tanishtirish. Matnni o'qituvchi o'qib beradi. So'ngra topshiriq beriladi:

— Asarni diqqat bilan tinglang. Abdulla Avloniy ilmni qanday ta'riflagan?

2. Kirish suhbat: .

— Asar nima haqida ekan?

— Hayotimiz, salomatligimiz, baxtimiz, g'ayratimiz nimaga bog'liq ekan?

3. Topshiriq asosida ichida o'qish.

— Asarni o'qing. O'zingizga ma'nosi notanish so'zlarni belgilang.

4. Lug'at ishi.

Ilm – Ilm (a. – bilim, fan; nazariya) 1 O'qish-o'rganish vat adqiqot, tahlil etish bilan erishiladigan bilim; ko'nikma, ma'lumot.

2 Ish-faoliyatning ilm bilan bog'liq sohasi, tabiat va jamiyat haqidagi bilimlar tizimi; fan.

3 Ish-faoliyatning ma'lum bir sohasiga oid bilim, ta'limot, malaka.

Fazilat – afzallik, ijobiy xislat, ezgu ish.

1. Ijobiy xislat, yaxshi xulq yoki xususiyat.

2. Afzallik, ustunlik.

3. Fazilar xotin-qizlar ismi.

Zehn – idrok, fahm, xotira.

Tushunish, qobiliyat, idrok, fahm.

Jaholat – Jaholat (a. – nodonlik; aqlsizlik; jaholat)

1 Ilmsizlik, qoloqlik, madaniyatsizlik, nodonlik.

2. Ayn jahl. Jahl Nojo`ya xatti-harakatdan, gapdan yoki voqea-hodisadan ranjish, achchiqlanish, g'azablanish tuyg`usi.¹⁴

- Asarni bir necha marta o'qing.

5. Darslikdagi savol-topshiriqlar ustida ishlash.

¹⁴ O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. T.

6. Darsda o'rganilganlarni umumlashtirish va tarbiyaviy xulosa chiqarish.

- Siz bugungi o'qigan asarimiz orqali nimalarni bilib oldingiz?

- Ilm insonga qanday yordam beradi?

Ilmsiz inson nimaga o'xshar ekan? Nima uchun?

7. O'quvchilar faoliyatini baholash va rag'batlantirish.

Men 2-sinf o'qish kitobidagi Abdulla Avloniyning «Ilm» nomli hikoyasining mazmun va g'oyasini o'quvchilar ongiga singdirish uchun uni «Ilmsiz bir yashar, Ilmli ming yashar» maqoli bilan bog'lab o'rgatish yaxshi natijalar beradi deb o'ylayman.

Ilmsiz bir yashar,

Ilmli ming yashar

Ilm baxt kalitidir. Kimning ilmi bo'lsa, olgan ilmini yaxshilik tarafga burib, o'ziga va eliga ishlatib, ilmiga ilm qo'shib, izzat hurmatga sazovor bo'ladi. Ilm hech qachon tugamaydigan hazina. Ilmi yo'q odamni esa hech qanday boyligi ham yo'q. Shuning uchun ilmsiz bir yashar, deydilar.

Xalq og'zaki ijodi durdonasi hisoblangan xalq maqollari dars samaradorligini oshirib, yosh avlodni tarbiyalashda, bolalarning chuqur bilim, ko'nikma olishida, ular nutqining rivojlanishida, lug'at boyligini oshirishda, shu bilan birga bolalarning yaxshi bilan yomonni ajrata bilish malakalarini shakllantirishda katta ahamiyatga ega.

Yuqoridagilarni e'tiborga olgan holda quyidagi xulosalarni bayon etish mumkin:

Hikoyani tahlil qilishda o'qish darslarida o'quvchilarning yosh xususiyatlari hamda ularning qiziqishlari bilan uyg'un keladigan metod va usullarni tanlash va amaliyotga tatbiq etish alohida pedagogik ahamiyatga ega.

O'quvchilar hikoyani tahlil qilish jarayonida mavhum hodisa haqida emas, balki o'z tasavvur va bilimlariga mos keladigan, hal qilishni uddalay oladigan topshiriqlar sifatida qabul qilishlariga erishish lozim.

Badiiy matnni lingvopoetik tahliliga boʻlgan ishtiyoq tabiiy ravishda uygʻonishi, oʻquvchilarning kitobga boʻlgan ragʻbatini oshirish, buning uchun esa oʻqish darslarida xilma-xil badiiy matnlarga murojaatni kuchaytirish kerak. Hikoya tahlili bilan bogʻliq holda oʻquvchi xilma-xil va keng qamrovli ma'lumotlarni mumkin qadar kengroq bilish imkoniga toʻla ishonch hosil qilsin va bu qiziqishlari oʻquvchining ma'naviy-ma'rifiy ehtiyoji sifatida shakllansin.

Oʻquvchilarning hikoya tahlili orqali ularda badiiy matn tilidagi oʻziga xosliklarni eshita olish va koʻra olish tuygʻularining shakllanishi va badiiy idrok, badiiy tafakkurning rivojlanishi ulardagi badiiy-estetik didning ham takomiliga muhim omil boʻlib xizmat qiladi. Xuddi shu badiiy didning oʻzi yanada yuksakroq badiiyatga ega boʻlgan asarlarni izlashga undaydi. Bu esa, oʻz navbatida oʻquvchilarning ilmiy saviyasi, badiiy mushohadasining shakllanishiga olib keladi. Ilmiy saviya va badiiy mushohada oʻquvchining ijodiy-fikriy qobiliyatlarini rivojlanishiga asos boʻladi.

3.3.«Eng yaqin do'stimiz» hikoyasini o'rgatishda noan'anaviy usullardan keng foydalanish

Boshlang'ich sinflarda o'qish darslarini turli noan'anaviy shakllarda tashkil etish pedagogik texnologiyaning eng muhim talabi sanaladi. Ana shu noan'anaviy dars shakllaridan biri “O'rganilgan yoki o'rganilayotgan bilimlar olamida sayohat” darslaridir. O'quvchilar sinfda o'tirib, bilimlar olamida sayohat qiladilar. O'qituvchi dars jarayonida beriladigan o'quv topshiriqlarini to'rt-besh “bekat”ga ajratadi. Muayyan bir “bekat”dagi o'quv qiyinchiligini yenggan o'quvchi, o'qituvchi rahbarligida ikkinchi “bekat”ga yo'l oladi. Barcha o'quv qiyinchiliklarini yenggan o'quvchilar bilimlar mamlakatini zabt etadilar.

Dars murakkab ijodiy jarayondir. Uning samaradorligi ko'p jihatdan o'quvchilarning faolligiga bog'liq bo'lib, undan juda katta mehnat talab qiladi.

O'quvchilarni faollashtirish uchun esa o'yin, bahs, suhbat, musobaqa, sayohat, seminar, konferentsiya kabi noan'anaviy usullardan foydalanish yaxshi natija beradi.

Bugungi kunda ta'lim texnologiyalarini shartli ravishda ikki turga ajratish mumkin:

An'anaviy;

Noan'anaviy.

An'anaviy ta'lim texnologiyasi – muayyan muddatga mo'ljallangan, ta'lim jarayoni ko'proq o'qituvchi shaxsiga qaratilgan bo'lib, o'qitishning an'anaviy shakli, metod va ta'lim vositalarining majmuidan foydalangan holda ta'lim-tarbiya maqsadiga erishishdir.

Noan'anaviy ta'lim texnologiyasi-muayyan muddatga mo'ljallangan. Ta'lim jarayoni markazida o'quvchi shaxsi bo'lib, o'qitishning zamonaviy shakli, faol o'qitish metodlari va zamonaviy didaktik vositalarning majmuini ta'lim-tarbiya ishidan ko'zlagan maqsad va kafolatlangan natijaga erishishga yo'naltirilgandir.

Noan'anaviy ta'lim texnologiyasi an'anaviy ta'lim texnologiyasidan farq qilib, o'quvchilarning bilish imkoniyatlarini rivojlantirishiga sharoit yaratadi, mustaqil

ishlashlariga alohida e'tibor beriladi, bilish faoliyatlari izlanuvchan va ijodiy xarakterga ega bo'ladi. Dars tuzilmasi o'zgaruvchan bo'ladi.

Kitob – o'zlikni anglashda nihoyat katta vositadir.

Bizga ma'lumki, kitobga bo'lgan ehtiyoj bola hayotining dastlabki yillarida shakllana boshlaydi. Bolalarga ta'lim va tarbiya beruvchi maktab faoliyatini kitobsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Insonning aql-zakovati va bilimlarini saqlash va keng yoyishning eng mukammal quroli bo'lgan kitob shaxsning har tomonlama yuksalishiga hamda ijtimoiy taraqqiyotiga yordam beradi.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi, hikoya o'qish darsi.

Dars shakli: Noan'anaviy, tushuntirish, suhbat.

Asosiy masalalar. O'quvchilarga Hakim Nazirning hayoti va ijodi haqida ma'lumot berish, o'qish malakalarini takomillashtirish.

Tayanch tushunchalar. Munavvar qilguvchi, mavjudot, zehnni peshlamoq, mavqe, g'animat sezmoq, g'amlamoq.

Darsda foydalaniladigan ta'limiy vositalar: Hakim Nazir rasmi, test topshiriqlari.

Dars metodi: izohli o'qish, noan'anaviy o'qitish metodi.

Darsning maqsadi:

I. Hakim Nazir shaxsi bilan tanishtirish, hayoti va ijodi haqida ma'lumot berish.

2. O'quvchilarni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash va o'qish malakalarini yanada rivojlantirish

3. O'quvchilar lug'atini boyitish, savol-topshiriqlar ustida ishlash.

4. O'quvchilarda kitobga mehr-muhabbat uyg'otish, uni avaylab-asrash, kitob bilan oshno bo'lish hislatlarini shakllantirish, bebaho xazina ekanligi haqida ma'lumot berish.

Darsning borishi. Men 2-sinf o`qish kitobida berilgan Hakim Nazirning «**Eng yaqin do`stimiz**» hikoyasini o`tishda noan'anaviy usullardan foydalangan holda darsni tashkil etaman.

Boshlang`ich sinflarda o`qish darslarini turli no`anaviy shakllarda tashkil etish pedagogik texnologiyaning eng muhim talabi sanaladi. Ana shu noan'anaviy dars shakllaridan biri “O`rganilgan yoki o`rganilayotgan bilimlar olamida sayohat ” darslaridir. O`quvchilar sinfda o`tirib, bilimlar olamida sayohat qiladilar. O`qituvchi dars jarayonida beriladigan o`quv topshiriqlarini to`rt-besh “bekat”ga ajratadi. Muayyan bir “bekat” dagi o`quv qiyinchiligini yenggan o`quvchi, o`qituvchi rahbarligida ikkinchi “bekat” ga yo`l oladi. Barcha o`quv qiyinchiliklarini yenggan o`quvchilar bilimlar mamlakatini zabt etadilar.

Birinchi bekat.

Hakim Nazirning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot berish.

Hakim Nazir 1915 yilda Toshkent shahrida maxsido`z-kosib oilasida dunyoga keldi.

Qunt, chidam bilan o`z ustida ishlashi, tinimsiz ijodiy izlanishi tufayli Hakim Nazir bolalar yozuvchisi sifatida kitobxonlarga tanildi. 1940 yilda “Kenja” (yangi nomi “Quyosh qachon tutiladi?”), 1949 yilda “Salim ota” nomli hikoyalari respublika tanlovlarida sovrindor bo`ldi. 1951 yilda esa Moskvada rus tilida chiqqan “Malchiki iz kishlaka” hikoyalar to`plami sobiq ittifoq` tanlovida mukofot oldi.

Sevimli yozuvchimizning ijod yo`liga sinchiklab nazar tashlasak, uning daslabki ijodiy izlanishlari hikoyachilikdan boshlanganini ko`ramiz. Uning birinchi kitobi “Qishloqdagi jiyanlarim” ham hikoyalardan jamlangandir. Hikoya janri yozuvchi bilan yosh kitobxonlar olamini birlashtirishda bamisoli bir ko`prik bo`ldi va bu ko`prik orqali Hakim Nazir bolalarning boy, go`zal, quvnoq, ajoyibotlarga to`la dunyosiga kirib bordi.

Ikkinchi bekat.

«Kitob, mening do`stimsan!»

Kitob haqida o`quvchilardan yodlagan she'rlaridan so`rash.

O`quvchilar o`zlari yodlagan she'rlarini navbat bilan aytadilar.

1- o`quvchi:

Yosh o`ynoqi ko`zlarim

Shuur olar kitobdan.

Tashkil topib so`zlari,

Baxtim kular itobdan.

Shuning uchun deymanki:

Kitob, mening do`stimsan! (Zafar Diyor)

2- o`quvchi:

Javonimga qarab qo`y:

Qilar yalt-yalt kitoblar.

Har xonada ko`rk, obro`,

Gavhar jild-jild kitoblar (Qudrat Hikmat)

3- o`quvchi:

Tanishaylik: men – kitob,

Asl bilimlarga kon.

Boylik beray behisob,

Bo`lsang agar qadrdon.

4- o`quvchi:

Kitob – bilimning boshi,

Aql-u idrok quyoshi.

Kitobda nurli iqbol,

O`qib topaman kamol.

Uchinchi bekat.

«Guruhlarning nomi»

Kichik guruhlar bilan ishlash. O'quvchilar 4-guruhga bo'linadi. O'quvchilar 1, 2, 3, 4 deb sanaydilar. O'z raqamlari bo'yicha guruhlanib, stol atrofiga o'tiradilar.

Har bir stol atrofidagi o'quvchilarga topshiriqlar konvertlarda uzatiladi.

I-topshiriq. Guruhingizga nom qo'ying. Uni ta'riflang.

1-guruh «Ilm»

«Ilm» guruhi ta'rifi.

Ilm baxt kalitidir. Kimning ilmi bo'lsa, olgan ilmini yaxshilik tarafga burib, o'ziga va eliga ishlatib, ilmiga ilm qo'shib, izzat hurmatga sazovor bo'ladi. Ilm hech qachon tugamaydigan hazina. Ilmi yo'q odamni esa hech qanday boyligi ham yo'q. Shuning uchun ilmisiz bir yashar, deydilar.

Qolgan guruhlar ham shu tarzda o'z guruhlariga ta'rif beradilar.

2-guruh «Kitob»

3-guruh «Ziyo

4-guruh» «Xazina»

II. Anglash bosqichi. Hamma guruhga bir xil topshiriq beriladi:

— Berilgan matnni, to'g'ri va ifodali o'qishga tayyorlaning. Ma'nosi tushunarsiz so'zlarni lug'at daftaringizga yozing. Asosiy fikrni aniqlang.

1. O'qigan matningizni yaqinlashtirib qayta hikoya qilib bering.

2. Ma'nosi tushunarsiz so'zlarning ma'nosini izohlashga harakat qiling.

3. Matnga yana qanday sarlavha qo'yish mumkin? O'zingiz sarlavha toping va daftaringizga yozing.

Ifodali o'qish va qayta hikoyalash mashqi. Har bir guruh hikoyani o'qib, gapirib beradi.

To'rtinchi bekat. «Maqollar musobaqasi bekati»

Maqollar donishmandlik ramzi. Ular o'quvchilarni chuqur fikrlashga, fikrni ixcham va aniq, obrazli qilib ifodalashga o'rgatadi, yosh avlodni milliy istiqlol g'oyasi, urf-odatlariga sodiq, xalq merosini ko'z qorachig'iday asrash ruhida tarbiyalashda juda muhim vosita vazifasini o'taydi.

Shuning uchun men bu bekatda maqollar musobaqasini tashkil etdim va maqollar musobaqasi bekati deb nomladi.

Kitob va ilm haqida maqollar aytish musobaqasi. Sharti bir guruh aytgan maqolni ikkinchi guruh takrorlamalik.

1-guruh

Kitob – bilim bulog`i,
O`quvchining o`rtog`i.

Bilgan o`qir, bilmagan to`qir.

2-guruh

Kitob – xazina,
Bilim – boylik.
Bilim – baxt kaliti.

3-guruh

Bilagi zo`r birni yig`ar,
Bilimi zo`r mingni yig`ar.
Bilimdan ortiq boylik yo`q.

4-guruh

Ilm olsang dunyoda,
Aqling bo`lar ziyoda.
Avval o`rgan, keyin o`rgat.
So`nggi bekat.

«Eng yaqin do`stimiz »

Bugungi darsimiz kitob haqida deb mavzuni e'lon qilish.

***Hakim Nazirning «Eng yaqin do`stimiz» hikoyasi bilan tanishtirish.
Hikoya o'qib beriladi yoki magnit tasmasi orqali eshittirilad va qisqacha mazmuni so`zlab beriladi.***

Hakim Nazir «Eng yaqin do`stimiz» hikoyasida kitob haqida so`z yuritgan bo`lib, u kitobni kitob o`quvchining eng yaqin o`rtog`i, dillarni uyg`otuvchi, munavar etguvchi vosita ekanligini o`qtiradi. Kitob kishilar ko`ngliga yaxshilik

urug'ini sepib, uni yomon yo'llardan saqlaydi deb, ulug' alloma **Abdurahmon Jomiyning «Kitobdan yaxshiroq do'st yo'q jahonda, harohing bo'lur u g'amli jahonda»** degan hikmatlarini keltirib o'tgan deb kitob haqida o'z fikrlarini o'quvchilarga yetkazadi.

III. Fikrlash bosqichi.

1. Darslikdagi savol-topshiriqlar bilan ishlash. Har bir guruh asar matni ostida berilgan 1-, 2-, 3-savollarga javob beradi va o'qituvchi tomonidan javoblar to'ldiriladi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash lozimki, noan'anaviy ta'lim texnologiyasi quyidagilarga imkon yaratadi:

O'z nuqtai-nazari va fikr-mulohazalarini aniq, ishonchli tarzda bayon qilishga o'rgatadi, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi;

Axborot va uning manbalarini tadqiq qilish va baholashga o'rgatadi;

Yuzaga kelgan vaziyatlarning sabab-oqibatli munosabatlarini topish, tahlil qilish, aloqalarini aniqlashga o'rgatadi.

Muammolarni qo'yish va ularning echimini topish qobiliyatlarini rivojlantiradi;

Shaxslararo muloqat va munozaralar yuritish malakalarini rivojlantiradi;

O'qituvchi va o'quvchilarni ijodiy izlanishga undaydi

3.4 “Maktabim – qutlug’makonim, kitobim – oftobim” bo’limidagi topishmoqlarni o’rgatish usullari

Xalq og’zaki ijod namunalari orqali o’quvchilar ezgulik, tug’riso’zlik, sofdillik, nafosat, do’stlik, o’rtoqlik, ahllik haqidagi tasavvurga ega bo’ladilar.

Topishmoq o’quvchilarni topqirlik va hozirjavoblikka o’rgatadi. Shu sababli xalq og’zaki ijodining bu janridan darslikhuda ham keng qo’llanilgan. 1-2-sinf „O’qish kitobi“ da topishmoqlar ko’proq, har bir matn ostida keltirilgan. Bundan ko’zlangan maqsad matn mazmunini topishmoqlar asosida ham o’zlashtirilishiga erishishdir. Masalan, I-sinf „O’qish kitobi“ da „Kitobga mehr“ matni ostida „Qat-qat qatlama, Aqling bo’lsa tashlama“ topishmog’i keltirilgan va mavzuga juda mos tanlangan. Topishmoqlar bunday shaklda berilganda ularning javobi oson topiladi. 1-4-sinf o’qish darsliklarida „Topishmoqlar“ mavzusi ostida har xil topishmoqlar ham berilgan bo’lib, ular o’quvchilarning topqiriligini yanada oshiradi, tafakkurini o’stiradi. 1 -2-sinf darsliklarida topishmoq javoblari ularning ostiga yozib qo’yilgan yoki rasmlar orqali berilgan. 3-4-sinflarga o’tgach esa javoblar qayd etilmagan. Buning sababi shuki, bu davrga kelib o’quvchilar topishmoqlar ustida ishlash ko’nikmalarini hosil qilgan bo’ladi.

Topishmoqlar bolalar shoirlari tomonidan ham yaratilib kelinmoq-da. Bunday topishmoqlar sho’x, qiziqarli bo’ladi. Masalan, 4-sinf „O’qish kitobi“ da „Buni toping, qizlarim“ (G’. G’ulom) topishmoqlari keltirilgan.

- | | |
|-----------------------------------|------------------------------------|
| - <i>To’ni silliq, tuki yo’q.</i> | - <i>Malla tukli, sap-sariq,</i> |
| <i>Hammasi to’g’, po’ki yo’q,</i> | <i>Murabbosi mazalik.</i> |
| <i>Ichi qizil, ko’ki yo’q,</i> | <i>Palovga bossa bo’lar,</i> |
| <i>Uni cho’g’olmas chumchuq,</i> | <i>Podvalga ossa bo’lar.</i> |
| <i>Bu nima, qizim Qunduz?</i> | <i>Tishlab ko’rib, ayt, Mehri,</i> |
| - <i>Bumi, dadavoy? Tarvuz.</i> | - <i>Bumi dadavoy? Behi.</i> |

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, topishmoqning ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyati mantiqiy tafakkurni rivojlantiradi. Ularga javob topish ermak uchun emas, bilaki o’rganilayotgan bilimlar sistemasining taraqqiyoti uchun zarurdir.

Shuning uchun topishmoqlar darsi, sinfdan tashqari soatlar tashkik etilsa, darslarda mavzularga oid topishmoqlardan foydalanilsa, maqsadga muvofiq bo`ladi.

Savod o`rgatish davrida topishmoqlardan foydalanish maktabga dastlab qadam qo`ygan bolalarni qiziqib savod chiqarishlarida muhim vosita bo`ladi.

Topishmoqlar bolalarni har tomonlama yetuk, zukko va bilimdon bo`lishlarida muhim ro`l o`ynaydi.

Topishmoq xalq og`zaki ijodining eng qadimgi va boy janrlaridan biri bo`lib, ular odatda xalqning urf-odatlarini, ruhiyat hamda axloqiy-estetik qarashlarini o`zida mujassamlashtirgan. Topishmoq she'riy yoki nasriy tuzilishdagi savol va topshiriqlardir.

Topishmoqlar narsaning bir necha xil belgilari yashirin, sirli holda beriladi. Har bir topishmoqning zamirida topilishi lozim bo`lgan bir ma`no va «kim?», «nima?» so`roqlarida yashiringan javob yotadi. Odamlar shu so`roqlarga qarab topishmoqda yashiringan narsani topishga harakat qiladilar. Ayniqsa, bolalar topishmoqdagi jumboqni bilishga, uni topishga juda qiziqadilar. Topishmoqlar mavzulari tabiat va kundalik hayotda uchrab turadigan aniq hodisa va narsalardan iborat bo`ladi. Odatda, topilishi lozim bo`lgan narsa yoki hodisaning biror belgisi taqqoslash yo`li bilan obrazli ifodalanadi. Ba`zi topishmoqlar narsaning bajaradigan vazifasiga, harakatiga, uning nimadan yoki qanday ishlanganiga qarab, shu xususiyatlar asosida yaratilishi mumkin.

Mayda, yoqutday qizil,

Shirin, nordon, xilma-xil.

Qalin, taxir po`sti bor,

Hamma yerda do`sti bor. (anor)

Qizil yuzli bir pari

Yer tagida zindonda.

Mayda o`rim sochlari

Ochiq, yalang maydonda.(sabzi)

«Boshi taroq, dumi o'roq».

«Men yuraman, u qoladi».

«Bir parcha patir – olamga tatir».

«Ichi bo'yoq, sirti tayoq»

kabi topishmoqlar shular jumlasidandir. Bolalarga topishmoqlarning javobini tasavvur qilishlari va topishlari oson bo'lishlari uchun velosiped, shaftoli, turp, kitob, xo'roz, iz, oy, qalam, toshbaqalarni rasmlari ham berilgan. Xullas topishmoqlarda xalq donishmandligi aks etadi. Ular o'ziga xos mazmuni va ifoda shakli bilan bolalarni ziyraklikka, kuzatuvchanlikka o'rgatadi, ularning fikrlar qobiliyatlarini o'stiradi.

Topishmoqda yashirilgan narsalar uning javobi hisoblanadi. Topishmoqning javobini topish uchun topishmoq matnini e'tibor bilan o'qish, nimaga ishora qilinayotganligini fahmlash, topishmoqning asosiy xususiyat va belgilari aynan nimaga qaratilganligini taxmin qilish bilan ham topishga harakat qilish kerak.

3.5. Bo'limdagi maqollar ustida ishlash usullari

Maqollar o'zbek xalq og'zaki ijodining qadimiy ommaviy janrlaridan biridir. Bolalar xalq og'zaki ijodida maqollar yetakchi o'rinda turadi.

Hikmatli so'zlar, maqollar, avvalo, ma'naviy-ahloqiy tarbiya masalasiga daxldor o'ziga xos adabiy janrlardan biri ekanini yaxshi bilamiz. Ba'zida katta bir asarni o'qib tugatgach, ne uqqanimizni anglay olmaymiz, ammo bor-yo'g'i ikki yoki uch misradan iborat donishmandlik ramzlaridan qandaydir xulosa chiqaramiz.

Xalq yaratgan g'oyat ixcham, chuqur va tugal ma'noli gaplar maqol deb yuritiladi. Maqol xalqning, bir necha avlodlarning aqlu farosati hamda turmush tajribasi, donishmandligi mahsulidir. Maqollarda hayotning achchiq-chuchugini tatib ko'rgan, turmushdagi hodisalarga aql ko'zi bilan qaraydigan, sof vijdonli, oliyjanob, dono, mehnatkash kishining biror voqea hodisadan, biror kishidan yoki biror ishdan chiqargan umumlashma xulosasi bayon qilinadi. Bu xulosa hayotda hammaga yo'l ko'rsatuvchi bo'lib xizmat qiladi. Maqollar xalqning aql-idroki, ijtimoiy-tarixiy tajribasi, kurashi hamda mehnatining badiiy ifodasi sifatida yaratiladi.

Ular asrlar davomida og'izdan-og'izga o'tib kelgan. Maqollar xalqimizning dunyoqarashi, jamiyatga bo'lgan munosabati, axloqiy normasini, tarixi va ruhiy holatini ifodalaydi.

Maqollar o'zining tuzilishi jihatidan qisqa, lo'nda, puxta, mantiqli, fikran tugallangan bo'ladi. Ular qadimdan xalq donishmandligi, aql-idroki, fikr-o'ylarining ifodasi sifatida yashab kelgan.

Maqollar, matallar, aforizmlar kishilarning, ayniqsa yoshlarning ongini o'stiradi, ularni to'g'ri, rostgo'y mehnatsevar, mard, jasur, sabotli va matonatli bo'lishga o'rgatadi. Biror jumla, gap shaklida kelgan maqolda ortiqcha so'z bo'lmaydi. Har bir so'z aniq, o'z o'rnida ishlatiladi. Fikrni qisqa, aniq qilib ifodalashga o'rgatadi.

Maqollar ma'nosining teranligi, ixcham, pishiq va puxtaligi bilan xalq og'zaki ijodining boshqa janrlari bilan farq qiladi. Shu sababdan ular bolalarni

to'g'ri, mantiqiy fikrlashga, maqsadni qisqa, ixcham va lo'nda bayon qilishga o'rgatadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ifodali o'qish va ifodali nutq malakalarini hosil qilish, uni takomillashtirishda dono xalqimiz tomonidan yaratilgan maqollardan ham foydalaniladi. Maqollarni o'rganish uchun maxsus dars soati ajratilmaydi. O'qish darslarida maqollardan o'rganilayotgan badiiy tekstning mazmuni va vazifalariga bog'lab, tekst mazmuni yuzasidan xulosa chiqarishda, mustaqil ishlarda foydalaniladi.

Maqollar donishmandlik ramzi. Ular o'quvchilarni chuqur fikrlashga, fikrni ixcham va aniq, obrazli qilib ifodalashga o'rgatadi, yosh avlodni milliy istiqlol g'oyasi, urf-odatlarga sodiq, xalq merosini ko'z qorachig'iday asrash ruhida tarbiyalashda juda muhim vosita vazifasini o'taydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ifodali o'qish va ifodali nutq malakalarini hosil qilish, uni takomillashtirishda, lug'at boyligini oshirishda dono xalqimiz tomonidan yaratilgan maqollardan ham foydalaniladi va u sharhlab beriladi.

Oltin olma duo ol,

Duo oltin emasmi.

Biror ish qilsang, albatta kattalardan duo ol. Chunki duo har qanday oltindan ham qimmat, oltin tugaydi, duo bilan el ko'karadi, deyilgan. Bolalarga maqollarga yaqin rivoyatlarni aytib bersak, maqollarni yanada yaxshiroq tushunadilar.

Rivoyat qilishlaricha, bir usta bo'lib uning shogirdi bo'lgan ekan. Vaqti etib usta shogirdiga duo berib shogirdlikdan chiqaribdi. Shunda usta shogirdiga: "oltin beraymi, duo", deb so'rabdi. Shogird shoshqaloqlik qilib, "duoingizni nima qilaman, oltin bering"- debdi, usta ha mayli, sen nimani xohlasang shu, deb oltin beribdi. Biroz vaqt o'tgandan so'ng usta bozor aylanib yursa, erda shogirdi o'lib yotganini ko'radi va qo'lidagi olgan oltinini ham ishlatishga ulgurmagan ham ekan. Ustani shogirdiga ichi achishib, oltin emas, duo olganingda shunday bo'lmas edi debdi.

Bundan shuni aytish mumkinki, duo har qanday balo qazodan ham saqlaydi.

Avval o'yla, keyin so'yla

Maqolda kishilarning o'zaro so'zlashish odobiga qat'iy rioya qilishlari, aytadigan har bir so'zi (gap)ni avval o'ylab, so'ng so'zlashi zarurligi ifodalangan. O'ylamay aytilgan so'z kishini uyalib qolishiga sabab bo'lishi mumkin. «So'zlaganing kumush bo'lsa, tek turganing-oltin», «Aytilgan so'z-xo'jayining, aytilmagan so'z-xizmatkoring».

“So'zni ko'ngilda pishirmaguncha tilga kelturma. Va har nekim, ko'ngilda bor-tilga surma” (*A.Navoiy*).

O'qish darslarining hammasida maqollardan foydalanish, o'quvchilarni maqollar bilan tanishtirish orqali ularga ta'lim bilan bir vaqtda tarbiya ham berish mumkin.

Ilmi yo'qning ko'zi yumuq

Ilm baxt kalitidir. Har bir inson «Beshikdan to qabrgacha ilm izla» shi kerak. Dononing ilmi bo'lsa, u olgan ilmini yaxshilik tarafdagi burib, o'ziga va el foydasiga ishlatib, ilmiga ilm qo'shib, izzat hurmatga sazovor bo'ladi. Nodon, ahmoq odam, ittifoqo ilmi bo'lib qolsa, o'z ilmini ahmoqona ishlatib, ikki gapining birida ilmini ro'kach qilib, elni ranjitadi. Avvalo, u o'z bilimlarini o'zgalarga berishni xohlamaydi, bergan taqdirda ham minnat qiladi. Bunday kimsalarga esiz ilm, deyiladi.

Daryo suvini bahor toshirar, odam qadrini mehnat

Inson o'zining jamiki boyliklarini mehnat tufayli yaratadi. Shu bois, kishilar mehnatni qadrlaydilar, farzandlarini mehnatsevarlik ruhida tarbiyalaydilar. Xalqda «Daraxt yaprog'i bilan ko'rkam, odam - mehnati bilan» degan maqol ham bor. Ushbu maqol va shu kabi maqollarda mehnatsevarlik fazilati ulug'lanadi. Mehnat qilgan inson hech qachon xor bo'lmaydi, biror narsaga zor bo'lmaydi.

Quyidagi maqollar:

Do'st bilan uying obod.

Do'stsiz boshim –

Tuzsiz oshim.

Bolalarni do'stlikka, birodarlikka o'rgatuvchi, ularni ahil-inoq bo'lishga chorlovchi, do'stlikning buyuk kuch ekanligini ifodalaydi.

Odob-axloq, bilimning afzalligi, bunday xislatlar insonni buyuk inson bo'lishiga xizmat qiluvchi ekanligini o'rgatuvchi maqollar:

Bilim – boylik kaliti.
Oltin olma – duo ol.
Oldin o'yla – keyin so'yla.
Olim bo'lsang, olam seniki.
Sog' tanda – sog'lom aql.
Sen o'zingni maqtama,
Seni birov maqtasin.

Vatanni sevis, ardoqlash, Vatan uchun xizmat qilish haqidagi maqollar:

Bulbul chamanni sevar,
Odam – Vatanni.

Hunarni asrash, hunarli bo'lish, uni avaylash, uni qadriga yetish, bekor yurmaslik, foydali ishlar bilan shug'ullanish haqida:

Hunar – hunardan unar.
Harakat, harakatda barakat.
Har kim ekanin o'rar.
Bugungi ishni ertaga qoldirma.

Maqollar ustida ishlashning ko'rinishlarini quyidagicha bo'lishi mumkin: maqollarni o'rganishda og'zaki bayon etish, suhbat, og'zaki va yozma mashq ishlash usullaridan unumli foydalanish mumkin. Mazkur usullarni quyidagicha kengroq tafsil etsak bo'ladi:

1. Maqollarni darsda va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'qiydiganlar grammatik tahlil etadilar, matn mazmuni bilan maqol mazmunini qiyoslaydilar. Mazmunan tahlil etadilar. Maqollarning xalq og'zaki ijodiga mansub ekanligini biladilar, uning tuzilishi haqida, qanday o'qilishi haqida ma'lum tasavvur hosil qiladilar.

2. Oilada kattalardan eshitgan maqollarning mazmunini tushunishga harakat qiladilar va o'z axloqlarini maqol mazmuniga doimo qiyoslab boradilar.

3. Ko`chada va boshqa jamoat joylarida maqolning hayotiyliги bilan tanisha boradilar, o`z nutqlarida maqolni ixtiyoriy, ba'zan beixtiyor ishlatadilar.

Amaldagi darsliklarga kiritilgan maqollar o`qish darslari uchun berilgan matn mazmunlarini ochishga, o`quvchilarni yaxshi ruhda tarbiyalashga, o`qish darslarini ona tili darslari bilan bog`lashga, o`quvchilarda mujassam bo`lishi shart bo`lgan yaxshi fazilatlarining shakllanishiga xizmat qiladi.

Bolalarga matn mazmunini ochuvchi maqollar quyidagi tartibda o`rgatiladi:

1. O`qilgan matn ichidan maqollarni topish, mazmunining matn mazmuniga mosligini qiyoslay olishni bilish.
2. Maqol mazmuni asosida og`zaki insho yoki og`zaki hikoya tuzish.
3. Insho yozishda va insho ustida ishlashda maqollardan foydalanish.

O`qituvchi maqolni tahlil etar ekan, pedagogik qonunlarga to`la amal etishi lozim. Ya'ni o`quvchilarning o`z hayotlarida unga amal qilishlarini talab etib boradi.

Ma'lumki, xalq maqollarida xalqning pedagogik qarashlari o`z aksini topgan. Masalan, «Hurmat qilsang, hurmat ko`rasan», «Mehnat, mehnatning tagi rohat» maqollarida xalq pedagogikasining asosiy qonunlarining mazmuni berilgan. Bolalar bu maqollar orqali o`zlarida yaxshi xislatlarni shakllantiradilar.

Maqollar o`quvchilarga individual- yakka holda – yondoshish borasida ham o`qituvchi ishida qulaylik tug`diradi. Ayrim hollarda o`qituvchi «Nega maktabga ozoda kelmading?», «Nega usting kir?» kabi jumalarning o`rniga «Sog` bo`lay desang, ozoda yur» yoki «Sog` badanda sog` aql» kabi maqollarni eslatishi bolalarga ijobiy ta'sir etadi. O`quvchi maqol asosidagi ozoda yurish hayotdagi muhim ishlardan biri ekanligini, doimo toza va ozodja yurish kerakligini tez va oson tushunadi.

O`qituvchilar maqollarni yodlab kelishni talab qilishi bilan bir qatorda uning mazmunini ham talab etishi lozim. Chunki, maqollarning mazmuni tushunilmasdan yodlansa, maqol tez esdan chiqadi, qolaversa, bu maqollar nima sababdan ishlatilayotganligini, qanday hollarda ishlatilishi mumkinligini o`quvchilar bilmaydilar. Axir har bir maqol bizni qaysidir nozik holatlardan olib chiqa oladi, haysidir xavfu xatarlardan bizni ogohlantiradi. O`quvchilar boshlang`ich sinfdan boshlab, maqollarning mana shunday xususiyatlarini ongli ravishda o`zlashtirib borishlari lozim.

Maqollar yosh avlodni komil inson ma'nan va jismonan barkamol bo`lishi bilan birga o`quvchilarga rostgo`ylik, do`stlik, hunar egallash, mehnatsevarlik, vatanparvarlik singari fazilatlarni singdirishda juda muhim ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Xullas, ularni Vatanimiz kelajagi uchun jon fido qila oladigan komil insonlar bo`lib yetishishlarida muhim vosita bo`ladi.

Xulosa

Bitiruv malakaviy ishi natijalari quyidagi umumiy xulosalarni chiqarishga imkon beradi:

1. O`qish kitobi darsliklari sahifalarida yozma adabiyotimizning go`zal namunalarini tanlash va saralashga alohida ahamiyat berilishi zarur. Negaki o`quvchilarni badiiy matn tahliliga butun diqqat-e'tiborini tortish uchun tahlilga tortilayotgan matnning qay darajada badiiy bo`yoqdorligi va tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari bugungi kun o`qituvchisi darsliklardagi materiallar bilangina kifoyalanmasligi kerak. Aksincha o`qituvchi dars mavzusiga mos bo`lgan turli xil badiiy matn bilan o`z darsini boyitishsa, ayni mazkur badiiy matn ustida olib borilgan qizg`in tahlil orqali esa o`quvchilarning fikriy qobiliyatlarini rivojlantirishga erishiladi.

2. Shuni unutmaslik kerakki, har bir ta'limiy vazifani bajarishning aniq va ilmiy metodik usullari mavjud bo`lib, zamonaviy usullar bilab boyitib borilmoqda. "Maktabim – qutlug' makonim, Kitobim – oftobim" bo'limi orqali 2-sinf o`quvchilari bilan ishlash jarayonida, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda o`yinga asoslangan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash ta'lim samarasini oshirdi. O`yinga asoslangan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash jarayonida didaktik o`yinlar oldindan rivojlantirilgan, o`z ichiga qirrali o`yinlarni qamrab olishi, o`yin elementlari funksiyalarini o`qituvchi o`quvchilarga qanday tushuntirishga va qanday yetkaza olishga bog'liq ekanligi bo'limdagi hikoya, she'r, topishmoq, maqollar ustida olib borilgan tahlillar natijasida o`z isbotini topdi.

3. Hikoya, she'r, maqol va topishmoqlarni tahlil qilishda har bir so`z o`z kontekstidagina turfa xil ma'no tovlanishlari bilan jilolanishini o`quvchilar ongi shuuriga singdirish emas, balki badiiy matndagi, so`zdagi ma'no tovlanishini idrok qilishga o`rgatish, til hissiga tayangan holda ularning fikriy qobiliyatlarini rivojlantirish kerak.

4. O`quvchilar bilan olib boriladigan hikoya, she'r, maqol va topishmoqlar tahlili, albatta, vaqtinchalik, bir martalik yoki tasodifiy bo`lmasligi zarur.

Aksincha doimiy, izchil olib boriladigan jarayon sifatida diqqat markazda bo'lishi darkor.

5. Bizning maqsadimiz demokratik huquqiy davlat qurish ekan, bunday jamiyat insonlar, o'quvchilarni ham axloqan, ham ma'nan boy, komil kishilar qilib tarbiyalash va erkin, mustaqil tafakkur sohibi qilish zarurdir. Shu boisdan ta'lim jarayonidagi har bir inson bu mas'uliyatli vazifaga befarq qaramasligi va faollikni o'ziga fazilat qilib olishi lozimdir.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch “ Toshkent. “ Ma'naviyat” Toshkent.1998

2. Jumaboyev M. O'zbek va jahon bolalar adabiyoti. Toshkent. 1996.
3. Jumaboyev M. Kichkintoylarning katta adabiyoti. Toshkent. 2002.
4. Matchon Safo. Kitob o'qishni bilasizmi.T. “ O'qituvchi “
5. Masharipova U. “Badiiy asarlarni idrok etishga tayyorlash”. // Boshlang'ich ta'lim, 2010, №4.
6. Nishonov S. « Ta'lim tizimida barkamol shaxs tarbiyasi». J.: Xalq ta'limi, 2000 y.1-son, 12,16-b.
7. Qosimova K., S.Matchonov, X. G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva, Sh.Sariyev. Ona tili o'qitish metodikasi. Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabalari uchun darslik. T.: «NOSHIR» nashri. 2009.
8. Qodirov V. Noan'anaviy darslar Andijon. 1996.
9. Tolipov O'. O'quvchilarni mustaqil ishlashda o'qitish vositalari. T., « Xalq ta'limi » 2000 y. №3.
- 10.To'xtaboyev X. Bolalarga ishonning do'stlar. O'zbek adabiyotining yangi dasturi. Ma'rifat gazetasi 1991 yil 10dekabr soni.
- 11.Ubayxo'jayeva R. Yosh, izlanuvchan o'qituvchilarga. // Boshlang'ich ta'lim. 2005 4-son.
12. Yusupova Sh. Noan'anaviy dars – davr talabi. Andijon. 2002.
- 13.Yo'ldoshev J. “Boshlang'ich sinflarda interfaol ta'lim”. // Boshlang'ich ta'lim, 2010, №4.
14. Yo'ldoshev J. O'zbekiston Respublikasi ta'limi – taraqqiyot yo'lida. T. “O'qituvchi”. 1993.
- 15.Yo'ldosheva Sh. Interfaol usullar – dars samaradorligini ta'minlaydi.. // Boshlang'ich ta'lim. 2013 2-son. 20-21-b.O'zbek xalq maqollari. T. 2005.
- 16.O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. T.

17. G'afforova T., Nurullayeva Sh., Mirzahakimova Z. O`qish kitobi. Umumiy o`rta ta'lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik. T.: «Sharq» nashriyot-matbaa aksionerlik kompaniyasi Bosh tahririyati nashriyoti. 2012.
18. www.ziyouz.uz
19. www.edu.uz
20. WWW.Google.uz